



ENA

Bir kun shamol bo'lsam, bir kun bo'lsam tog',
Vaqtlar munkaytirdi faqat pasayding.
Yurtning manglayiga kulfat kelgan chog',
Ena, tuqqaningga achinmasayding!

Bolang shoir bo'lib rostini yozsa,
Ko'zingni yoshida joynamoz chayding.
Ro'moling dor qilib shoiring ossa,
Ena, tuqqaningga achinmasayding!

Kazzoblar kelishsa hолингни so'rab,
Boshingni tik tutsa ishongan g'aybing.
Ular keltirishgan kafanga o'rab,
Ena, tuqqaningga achinmasayding!

Xayolim burchidan o'tadi bir o'y,
Oq sut bergenningmi eng katta aybing?
Meni qabrgamas yuragingga qo'y,
Ena, tuqqaningga achinmasayding!

Akalarim topshir, ber ukalarim,
Millatga onalik qilmoqlik payting.
Bolalaring bilan sinasa Karim,
Ena, tuqqaningga achinmasayding!

Alisher BOYMURODOV



"International Hotel Tashkent" mehmonxonasida 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bayram tabrige o'qib eshitirildi.

Davlatimiz rahbarining farmoni bilan bugun soha vakillarining bir guruhi orden va medallar bilan mukofotlangan edi. Bayram tadbirida Senat Raisi Tanzila Norboyeva ushbu mukofotlarni o'z egalariga topshirdi.



Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'limgardagi tizimidan boshlanadi.

Shavkat Mirziyoyev

USHBU SONDA:

Umida Xudoyarova. Rus tili darslarida diqqatni jalb etuvchi usullardan foydalanishning ahamiyati.....1
Odiljon Hayitov, Gulnora Salijanova. Malakali kadrler tayyorlash – asosiy maqsadimiz.....2-3
Abdurayim Pulotov. Innovation yondashuvlar ta'limgardagi sifatini oshiradi.....4-5
Abdug'ani Abdullayev. Hurmat.....6
Bahromjon Mamadaliev. Bolani yoshdan, niholni boshdan asrang!.....7
Husnida Usmonova. Ingliz tili darslarida ijodkorlik mashqlari va pedagogik tajribaning ahamiyati.....8
Zulkumor Qarshiyeva. Tarix darslarini o'tmish va bugun qiyofasida tashkil etishda qo'llanadigan usullar.....9
Zubayda Sobirova, Qamarjon Yaqubova. O'quvchilarda o'tish davri va unda o'qituvchining vazifalari, kasba yo'naltirish ko'nikmalari.....10
Baroq Xoliqulova. Maktabgacha ta'limgardagi tashkilotlarda ta'limi faoliyatning maqsad va vazifalari.....11
Nodira Cho'liyeva. Ta'limgardagi rahbar va xodimlar munosabati hamda boshqaruv tizimi.....12
Nodira Zoyirova. Gulbadanbegim va "Humoyunnomma".....13
Ergash Boymatov. Boshlang'ich ta'limgardagi pedagog muvaffaqiyatlarga erishishining usullari.....14
Gulmira Davirova. Kitob – beminnat ustoz.....15
Damin Xo'jaqulov. Musicijiy xazinaning uch kaliti.....15
Malohat Xudoyberdiyeva. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy usul va dars shakllari.....16
Dilruba Xasanova. Iste'dodlar silsilasi.....17
Surayyo Inomjonova. Boshlang'ich sinflarda fentezi asarlar o'qitilishining pedagogik-psixologik xususiyatlari.....18-20
Bektosh Mansurov. Kosib. Qassob.....20
Azizbek Oromov. She'rlar.....21
Abdumannon Ashraf. Ertal so'ngan yulduzlar.....22-23
Muqaddasxon Ahmadjanova. Bolalarga bering dunyoni. Qoshlaring. Hamon tushlarimda... Bahor qizlari. Konstitutsiya – hayot kitobi.....24
O'tkirbek Narbayev. Kitob – kelajak poydevori.....25
Toshpo'lat Xo'jamov. Kurmakiy. Zamonaviy ertak.....26-28
Nizomiddin Madrahimov. Chiqsang. Gulim... Valentina. Odamlar. Birovning go'riga birov kirmaydi.....29
Erkinjon Bo'stoniy Andijoniy. El suygan hofizing hikmati she'riyati.....30
Bekboy Qurbonov. O'zbekistonim. Muhabbat qo'shig'i. Dunyoning ishlari. Meni rosa... Yurtimizga keldi yoz.....30
Ma'rufjon Qo'chqorov. Mudhish jinoyat.....31
Diyora Jalolova. Biz o'zbekning jippi avlod.....32
Bibixojar Shodiyeva. Sinov.....32

Bosmaxonaga 27.06.2023-yilda topshirildi. Bosishga
27.06.2023-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oziga ofset bosma usulida bosildi. Hajmi 4,5 bosma taboq.

Bichimi 60x84 1/8.

Adadi 500 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Aziz kitobxon" nashriyoti MCHJ matbaa bo'limida
sahifalandi va chop etildi.

Korxona manzili: Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi,
36-uy.

Jurnalda chop etilgan maqolalarda keltirilgan faktlar, raqamlar,
ma'lumotlar va voqealar haqiqiyligi uchun mualliflar va tahririyat
mas'ul hisoblanadi.

O'ZBEKISTONDA

TA'LIM

6(28), 2023-yil

MUASSIS:
"IQTIDOR INFO" mas'uliyati
cheklangan jamiyati

Direktor:
Jo'rayev Aktam Asliddinovich

TAHRIRIYAT
Bosh muharrir:
Rajabov Faxriddin
Toshpo'latovich

Navbatchi muharrir:
Parmanov Nu'monjon
Toshnazarovich

Dizayner-texnik muharrir:
Botirova Obida
O'ralovna

TAHRIR HAY'ATI:
Ro'ziqulov Faxriddin
Rasulovich

Psixologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Pulotov Abdurayim Murotovich
Pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent

Ro'ziqulova Amina
Totliboyevna
Psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (Phd)

Safarov Dilmurod Xalimovich
Psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (Phd)

Xasanova Shohista
Boboxolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (Phd)

Shomihev G'olib O'ktamovich
Iqtisod fanlari nomzodi

Pulatov Jaxongir Nazirovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa
doktori (Phd)

Xasanova Xurshida Naimovna
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (Phd)

Boboyorov Shuxrat
Suvonqulovich
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (Phd)

RUS TILI DARSLARIDA DIQQATNI JALB ETUVCHI USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI



Umida XUDOYAROVA,
Qashqadaryo viloyati Koson
tumanidagi 9-IDUMning rus tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi

a'zolari savollarga javob topa olsa, ikkinchi yumaloq qor shaklidagi savolni birinchi jamoaga taqdim etishadi. O'yin shu tarzda davom ettiriladi.

"Tematic izlanish" usuli. Bu usul ma'lum bir mavzular bo'yicha ma'lumotlar izlash usulidir. Bunga ko'ra, o'quvchilarga qo'shimcha ravishda uyda mustaqil ma'lumotlar to'plab kelish vazifasi beriladi va keyingi darsda mavzu mustahkamlanadi.

"So'zlar bahsi" metodi. Bu metod rus tili darslarida qo'llanilganda bir bob, mavzu va mavzuning qismlari yuzasidan so'zlar bahsini tashkil etish tavsiya etiladi. Rus tili darsida o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga doir so'zlarning harflarini chalkash holda keltirib, undan so'z yasash va uning ma'nosini keltirishni topshiradi. Shu tariqa o'quvchining zukkoligi va so'z boyligini oshirishga erishiladi.

"Aloqa" metodi. Har hafta darsingizda bir passiv o'quvchini tanlab olasiz va hafta davomida darslariningizda ko'proq unga e'tibor qilayotganingizni bildirasiz. O'quvchida beixtiyor ichki energiya hosil bo'ladi va yaxshi pozitsiya bilan darsingizda faol bo'lishni boshlaydi.

"Tasvir va tasavvur" usuli. Bunda o'quvchilarga mavzu nomi aytildi va unga oid rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar ko'rgan tasvirlarini ketma-ketlikda hosil qiladilar.

"Yumaloqlangan qor o'yini" usuli ham mavzuni o'rganish uchun ma'qul usul. Bunda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, raqamlangan va yumaloqlangan qor shaklidagi tarqatmalardan birini tanlashadi va raqib guruhga uzatishadi. Raqib guruh

MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH – ASOSIY MAQSADIMIZ

Odiljon HAYITOVA,
Isrom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti “Konchilik ishi”
kafedrasi mudiri, geologiya-mineralogiya
fanlari doktori, professor,
Gulnora SALIJANOVA,
Isrom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti “Konchilik ishi”
kafedrasi dotsenti




Bilimli va mas'uliyatlari, raqobatbardosh yuqori malakali kadr tayyorlash hozirgi davrda jamiyatda o'z o'rmini topa olishning zarur shartidir. Avvalambor, bilimga intilish, ikkinchidan, hech tortinmasdan boshqalardan o'rganish kerak, o'qish-o'rganishdan, izlanishdan tortinmaslik kerak. Inson bor ekan, umrining oxirigacha ilm o'rganadi. Buning uchun uzlucksiz ta'l'm tizimi faoliyatini zamon talablariga moslashtirish zarurligi masalasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydilar: “Biz ta'l'm va tarbiya tizimining barcha bo'g'inalri faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”.

Demak, hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitlarida dunyoda ko'pgina tarmoq va sohalarda shiddat bilan islohotlar amalga oshirilayotganligi, an'anaviy ta'l'm tizimining imkoniyati chegaralanganligi, aholi qatlamlari turli sabablarga ko'ra oliy ta'l'm xizmatlaridan o'z vaqtida to'g'ri foydalana olmayotganliklari, davr talablari, egallangan (egallanayotgan) yo'naliш (mutaxassislik), kasb, lavozim va darajalar dolzarbligining o'sishi, ularga muvofiq keluvchi bilim, mahorat va malakalarga bo'lgan talabning ortishi oliy va yuqori malakali kadrlar, rahbar va soha mutaxassislarining butun hayotlari davomida muntazam ravishda malaka oshirishlari va qayta o'qishlariga zarurat ortib bormoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ilm-fan sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etish, yangi ilmiy muassasalarini va yo'naliшlarni tashkil qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshkent davlat texnika universitetining Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya fakulteti, “Konchilik ishi” yunalishi kafedrasi shu sa'y-harakatlar hosilasidir.



Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'l'm tizimi tasarrufidagi oliy ta'l'm muassasalarida ta'l'm turli amaliyot shakllari (tanishuv, malakaviy, ishlab chiqarish) bilan uzviy bog'langan. O'quv jarayonining bir elementi sifatida ushbu amaliyot shakllari orqali talabalar darslarda oлgan nazariy bilimlarini texnologiya va texnikaning zamonaviy usullaridan foydalangan holda, ishlab chiqarish sharoitlarida qo'llab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Amaliyot davrida talabalar ularga qo'yilgan masaladan kelib chiqib mustaqil ravishda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslash, olingen nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan qurilmalar va texnologiyalarini yaqindan o'rganish bo'yicha malakalarini oshirib borish bilan bir qatorda jamoada ishslash va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nkmalarini ham egallab boradilar.

Potensial ish beruvchilarning hozirgi kunda qo'yayotgan muhim talabalaridan biri ishchilarning professional kompetentligi bo'lib, talabalar amaliyotlarda o'zining kompetentligini baholash bilan bir qatorda ularni oliy ta'l'm muassasasida o'qish mobaynida sayqallab boradilar.

Amaliyotlarni tashkil etish orqali mashg'ulotlarni olib borish talabalar va o'qituvchilarning ko'p qirrali va o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qaralishi kerak, jumladan:

- o'qituvchi tomonidan ma'lum bir korxona sharoitidan kelib chiqib talaba uchun mustaqil o'rganilishi kerak bo'lgan asosiy topshiriqlar ro'yxati berilgan individual amaliyot dasturini ishlab chiqish;

- individual topshiriqlarni himoya qilish vaqtin, shu jumladan, kurs va diplom loyihalarini tayyorlash uchun haqiqiy materiallarni yig'ish;

- talaba tomonidan o'quv jarayonida va amaliyot davrida olingen ma'lumotlarni tahlil etish, o'rganish, qayta ishslash va o'zlashtirish;

- darslarda olingen nazariy bilimlarini amalda sinab ko'rish;

- o'qituvchi tomonidan talaba o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishda mustaqil, rejalangan, istiqbolli va natijaviy bo'lishi uchun tashkiliy va uslubiy ko'rsatmalarni tayyorlash.

Amaliyot davri uchun talabalar faoliyati oliy ta'l'm muassasasi tomonidan tasdiqlangan o'quv-me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Barcha turdag'i amaliyotlar talabalarning kasbiy o'z-o'zini anglashida va ularning o'z kasbi bo'yicha ishlashiga mehr oshishida ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtida ish beruvchilar ham ushbu masalaga jiddiy yondashmoqdalar, istiqbolli rejalar tuzishmoqda, bu faqat xalq xo'jaligining rivojlanishi uchun, mamlakat ravnaq uchun xizmat qiladi.

Talabalar o'quv sessiyalarini muvaffaqiyatlari yakunlagandan keyin turli ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida bitiruv oldi va malakaviy amaliyotlarini boshlashadi. So'nggi yillarda malakaviy amaliyotlar nufuzli korxonalarda olib borilmoqda. Bular qatoriga “Mineral resurslar instituti” DK, “Sanoatkon-geotexnazorat” DK, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinasi” AJ, unga qarashli Mis boyitish fabrikasi, 2-mis boyitish fabrikasi, Angren oltin saralash fabrikasi, Chodak oltin saralash fabrikasi, “Xondiza” boyitish fabrikasi, Jizzax va Sherobod sement zavodi, “O'zqurilish-materiallari” MCHJ, “75-Maxsus boshqarma” MCHJ, “Free transport” MCHJ, “Nurotamramor” XICHK, OOO “Zafar granite mining”, “Urankamyobmetgeologiya” DUK, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ”, GMZ-1, GMZ-2, GMZ-3, GMZ-4, GMZ-5, GMZ-7 zavodlari kabi bir qator yirik turdag'i ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

Korxonalarda amaliyot o'tash uchun barcha sharoitlar yaratilgan, ba'zi korxonalar amaliyotchi talabalar uchun bepul tushliklar tashkil qilgan bo'lsa, ba'zilari oylik ish haqi to'lanadigan ish o'rinnarini yaratgan. Bu esa o'z navbatida talabalarning o'z sohalariga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga bir turki bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyotlarni yuqori saviyada tashkil etilishi talabalarning nazariy o'qish davrida oлgan bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlanishida, albatta, o'z samarasini beradi. Shuba yo'qki, jahon ilm-fanining rivojlanish tendensiyalariga muvofiq yangi boyitish texnologiyalari yaratilishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.



INNOVATSION YONDASHUVLAR TA'LIM SIFATINI OSHIRADI

Abdurayim PULOTOV,
Navoiy viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi
direktor o'rinosari, pedagogika
fanlari nomzodi, dotsent



Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazining "2023-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlar rejasiga" muvofiq 2023-yil 26-may kuni "Milliy ta'l'm yaratilishda innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Xalqaro anjuman Yalpi majlisini Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich va A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Pardayeva Mehriniso Doniyorovna "Raqamli texnologiyalarda matematik modellashtirish va uning ahamiyati" mavzusidagi ma'ruzalari tinglandi.

Xalqaro anjuman Yalpi majlisida Finlyandianing Xelsinki universiteti HY+ trening markazi professori Xanni Koli "O'qitish jarayonini samarali loyihashtirish" mavzusida, Rossiyaning Kuzbass mintaqaviy kasbiy ta'limga rivojlantirish instituti o'qituvchisi Vashenko Irina Sergeyevna "Ocenka effektivnosti psichologicheskoy pomoshi podrostkom" mavzusida, Qozon Federal universiteti Yelabuga instituti kafedra mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Petrov Roman Yevgenovich "Modernizatsiya sovremenennogo obrazovaniya: Analiz opyta i tendentsii" mavzusida, Tojikiston pedagogika instituti fan va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, tarix fanlari doktori, professor Voxidov Shodmon Xuseynovich "Ta'limga ijtimoiy axloq va shaxs psixologiyasi: tolerant jamiyatda yangi qadriyatlar yo'axloq tanazzuli" mavzusida, Qirg'iz-Qozog universiteti, siyosiy fanlar nomzodi

Xamidova Zulfiya Tolibovna "Nauka, tvorchestvo i kreativnyy podkhod sposobny povesti stranu po puti innovatsionnogo razvitiya" mavzusida, Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti rektori, psixologiya fanlari doktori, professor Baratov Sharif Ramazonovich "Ta'l'm jarayonida psixologik omillarning o'rni va ahamiyati" mavzusida, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Alkarov Elyor Maxmudovich "Pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida zamonaviy yondashuvlar" mavzusida hamda Navoiy viloyati pedagogika markazi kafedra mudiri texnika fanlari nomzodi, dotsent Suvonov Olim Omonovichning "Raqamli texnologiyalarda matematik modellashtirish va uning ahamiyati" mavzusidagi ma'ruzalari tinglandi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanan quyidagi sho'ballarda o'zishini davom ettirdi:

- pedagog-xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishda uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish masalalari;
- ta'l'm jarayonida psixologik va pedagogik omillarning o'rni va ahamiyati;
- milliy ta'l'm taraqqiyotida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar;
- ta'l'm jarayonida boshqaruv va baholash masalalari, ta'l'm menejmentini takomillashtirishning zamonaviy usullari: muammolar va yechimlar;
- ta'limga aqliy resursga ahamiyat, baholash va sifat ko'rsatkichi masalalari.



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va mabkab
ta'limi vazirligi

Navoiy viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi



"Milliy ta'l'm yaratilishda innovatsion yondashuvlar"
mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanani tashkilotchilar



ishlarning uslubiy qo'llanmalari va multimediali ishlanmalari tayyorlanib, ta'l'm muassasalariga yetkazib berilishi va ommalashtirilishi kelishib olindi.

Anjuman ishida qilingan ilmiy xulosalar asosida berilgan amaliy taklif va tavsiyalar:

1. Umumta'l'm matablari ta'l'm jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishga va ta'l'm jarayoni innovatsion tizimini yaratishga yo'naltirilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo'llari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali ta'l'mning sifat-samaradorligiga erishish.

2. Umumta'l'm fanlarini o'qitishga innovatsion yondashuv asosida mazmunan modernizatsiyalash orqali o'qitish jarayoniga elektron axborot ta'l'm resurslari va multimediali ilovalarni joriy etish.

3. Yoshlarning internetga qaramlik muammosini samarali hal etish uchun, avvalo yoshlarning global tarmoqdan tashqaridagi qiziqishlar doirasini kengaytirish, asosiy e'tiborni vositali tarzda emas, balki bevosita muloqotni rivojlantirishga yo'naltirilgan harakatlarga qaratish.

4. Yoshlar uchun internetni xavfli vositaga aylanishining oldini olish maqsadida, internet saytlarida o'zbek xalqining milliy madaniyati va mintalitetiga xos bo'lмагan turli ko'rinishdagi ijtimoiy xavfli va aggressiv mazmunga ega bo'lgan tarmoqlar mavjudligini ota-onalarga yaqindan tushuntirish maqsadida ularning axborot asridagi faolligini oshirish uchun "Oila-mahalla-maktab" tizimini takomillashtirish.

HURMAT

Abdug'ani ABDULLAYEV,
Andijon viloyati Abdulhamid Cho'lp'on
jamoat fondi raisi



Yangi hovli olib ko'chib kelganimizga bir yilcha bo'ldi. Mahalladagi yoshlarni ham ancha-muncha tanib oldim. Lekin ular negadir meni mensimay qarar, nazariga ilmas edi. Salomlashsam ham sovuq alik olib qo'yishardi.

Kattalar ham negadir mening kimning farzandi ekanimni ham, kim bo'lib ishlashimni ham surishtirmas, go'yo ahamiyatsiz bir "kelgindi"day qarashardi.

Bir kun ko'chadan uyga kelayotsam uch-to'rt keksa va katta mahalladoshlar gaplashib turgan ekan, salom berib oldilariga borib qo'l berib ko'rishdim. Ulardan bir yoshrog'i:

- Qora belbog' sohibi ekansiz, bir ko'rsatib, maqtanib ham qo'yiamsiz? – deb qoldi.

- Ha, endi, bir qo'lga kirib qoldi-da, nimasini maqtanaman, – dedim, o'zimni kamtar tutib.

- Yashang, o'g'il bola, haqiqiy mard yigit shunaqa bo'ladi, – deb qo'ydi kattaroq oqsoqol.

- Maqtanishni kaltabinlarga chiqqargan. Bitta mashina olsa ham hammaga ko'z-ko'z qilib maqtanishadi. Bu qora belbog'ni har kimga ham beravermaydi, – deb qo'shib qo'ydi.

Shu-shu bo'ldi-yu meni mahallada hamma hurmat qiladigan, yoshlar yonimdan o'tsa so'rashadigan, bezoriroq o'spirinlar mendan hayiqadigan, kattalar salom bersam quyuq alik oladigan bo'lishdi.

Men Moskvadagi oliyohni bitirib kelganim, a'lo o'qib qizil diplomga bitirganim, she'rlar yozib turishim, matbuotda qancha hikoya va she'rlarim bosilib chiqqanini eshitganlar ham hali biror marta tabriklagani yoki shunday eksanzis deganini eslolmayman.

Bu munosabatni o'ylasam, odamlarning xarakteridagi g'atlari xususiyatlar haqida o'y surib ketaman. Nahotki, odamlar insonnai faqatgina chin insoniq fazilatlarga sabab bo'ladigan ishlariiga emas, mana shunday olgan unvon-u mukofotlarini qadrlasa, shularga qarab hurmat qilsa, degan xayol tinchlik bermaydi. Mayli, shunday bo'lsa ham bu qora belbog' menga shuncha hurmat, obro' olib bergeniga xursandman. Haqiqiy qanday odamligimni ham bir kun bilib qolishar. O'shanda qora belbog' sirini aytarman. Hozircha yopig'liq qozon yopiq tura tursin-chi.

Ikki-uch kun o'tganda ko'chadan o'tib ketayotib tengqur yoshlarga salom bersam, juda hurmatli odam bilan so'rashganday "Ey aka, yaxshimisiz?!" deb so'rasha bo'ladimi? Men ham nima gapligini tushunmaganday o'zimni tutib so'rashib o'tib ketaverdim.

Yana bir kun mahalladagi to'yga to'planib chiqib ketayotsak, tengqurlarimdan biri:

– Qora belbog'ni qachon olgansiz? – deb so'rab qoldi.



BOLANI YOSHDAN, NIHOLNI BOSHDAN ASRANG!

Bahromjon MAMADALIYEV,
Farg'ona viloyati Buvayda tumani

Yoz kunlari boshlandi. Quyosh erta tongdan zarrin nurlarini socha boshladи. Yangi kun boshlandи. Uyimiz katta asfalt yo'lning chetida joylashganligi bois, bir chetdan serqatnov mashinalar harakatini tomosha qilib o'tribman. Odamlar turmush tashvishlari bilan, u yoqdan-bu yoqqo'tinmay o'tadi, yelib-yuguradi. Kattakichikning o'z yumushi va tashvishlari bor. Ko'chamizda o'rta ta'lim maktabi bor, ko'chani to'ldirib 11-sinf bitiruvchilar kelib qolishdi, ularning qo'llarida turfa guldastalar, o'zlar esa chiroyli kiyinib olishgan edi. Ularga havas bilan boqib, beixtiyor o'ya toldim. Shu damda akademik-shoir G'afur G'ulomming ushbu misralari yodimga tushdi:

*Globusda bo'lgan har kichik nuqta,
Millionlab qondoshga Vatan, albatta.
Baxtiyor xalqimiz yashar abadiy,
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi.*

Tajribali o'qituvchi sifatida yoshlarga quyidagilarni so'zlab berdim. Sizlar Vatanimizning ertasi, kelajagisiz. Sizlarni davlatimizning eng nufuzli olyi o'quv yurtlari, zamonaviy kasb-hunar maktablari kutmoqda. Shunga tayyormisiz?

Buyuk bobokolonimiz Abu Ali ibn Sino bundan ming yil oldin, "Dovurak va botir insonlar kelajakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqlaydi" deb bejiz aytmagan. To'g'ri-da, farzand tarbiyasida har bir ota-ona yurish-turishi, muomalasi, har qanday holatda ham o'zini tuta bilishi, odob-axloq bobida o'z farzandlariga namuna bo'lishi kerak. Men ularga omad, "Oq yo'l" tiladim. Mening rahmatli Ahmadali otam madaniyatli, ma'rifatli inson edilar. Har doim bizlardan yaxshi o'qishimizni talab qilar edi. Yaxshi o'qigan bola so'zga chechan, nutqi ravon bo'ladi, derdi. Shu bois bizga yoshimizga mos kitoblar olib kelib sovg'a qilar edi. Mahfuza opamga O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning "Onaizor", Muqaddas opamga "Muqaddas" qissasini bergan edi. Menga esa O'limas Umarbekovning "Fotima va Zuhra" romanini berib, o'qib chiqishni buyurgan edi. Nega aynan menga? Kitobni qo'limga olib shoshilmay o'qib chiqdim. U ravon, o'qishli qilib yozilgan. Asar qahramonlari bilan birga yurasiz, birga turasiz. Butun vujudingiz bilan undagi voqealik bag'riga singib ketasiz. Asarda ezgulik va qabohat, muhabbat va nafrat, haqgo'ylik vaadolatsizlik, or-nomus va noplaklik masalalari mahorat bilan tasvirlangan. Oila boshlig'i Abdullajon Salimov halol va to'g'riso'z inson. Uning turmush o'rtog'i Sabura opa vafot etgach, o'n yildan ortiq uch farzandga ham ota, ham ona bo'lib, yolg'iz o'zi ularni kamolga yetkazdi. Bosh farzandi Hamidulla, qizlari Fotima

va Zuhra esa oilaning fayzi, quvonchi bo'lgan. Fotima 11-sinfni bitirar ekan, kelajakdan cho'chimas, kelajagi porloq va baxtli bo'lishiga ishonchi komil edi. Akasi Hamidulla ham singillariga mehribon, biri-birisiz turrolmas edi. Oilada o'zaro samimiylik hukmon edи. Hamidulla mustaqil hayotga qadam qo'ydi-yu, yurish-turishida o'zgarish paydo bo'la boshlaydi. Erta ketib, kech keladigan odat chiqaradi. Eng achinarlisи g'amxo'r-mehribon otasi Abdullajonning ham gapiga uluq solmay, uni hurmat qilmay qo'yadi. Hamidulla asar qahramonlaridan To'xtamurod (qiyshig), Zokir qimorboz kabi piyonista yigitlar bilan hamtovoq bo'lib qoladi. Ular shu darajaga yetadilarki, ichmasa turolmaydigan bo'lib qoladi.

Men ushbu kitobni g'oyatda e'tibor berib o'qiganim bois, araoxo'r, ichkilikka ruju qo'ygan, tubanlik qurbanlariga nisbatan qalbimda nafrat uyg'ongan. Nasha, qoradori, ko'knori kabi mast qiluvchi vositalarni iste'mol qiluvchilarni ko'rgani ko'zim yo'q. Bunday odamlar jamiyatimiz tanasiga yopishgan illatdir. Ular hech kimga foydasi tegmaydigan o'z nafsining quli, o'zini o'zi abgor qilgan kimsalardir.

Shuning uchun ham dono xalqimiz "Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra" deb bejiz aytmagan. Dadamning menga sovg'a qilgan kitobi bir umrlik katta saboq bo'ldi. Maktabni tamomlab ota-ona bag'ridan katta hayot osmoniga parvoz qilayotgan yigit-qizlarga hamisha ogoh va hushyor bo'lishlarini tayinladim. Do'st tanlashda hech qachon adashmang. Do'stga sodiq va bir-biringizga mehribon, g'amxo'r bo'linglar dedim.

Spiriti ichimlik ma'naviy qashshoqlikka olib kelishini tushuntirdim. Ayrim yoshlar kattalarga taqlid qilib sigareta chekadi, spiriti ichimliklar iste'mol qilishadi.

Aziz yoshlar, giyohvandlikka ruju qo'ygan kimsalardan goching, ular sizni qabohat botqog'iga tortib ketishadi. Hozirda bizning O'zbekistonimizda giyohvandlikka qarshi keskin kurash olib borilayotganligi, giyohvand vositalarini sotish bilan shug'ullanlangan kishilargan jinoiy javobgarlik belgilab qo'yilganligini so'zlab berdim.

Donolarimizdan biri:

- Dunyoda yaxshi ko'pmi, yomonmi?
- Yaxshi-ku ko'p, lekin bitta yomon mingta yaxshiga tatiyida, degan ekan.

Shu bois kitob o'qib, nima yaxshi-yu nima yomon ekanligini o'z vaqtida anglab yetganman. Menga kitobni tanlab o'qishni o'rgatgani uchun dadamdan bir umr minnatdor bo'lib yashayabman.



INGLIZ TILI DARSLARIDA IJODKORLIK MASHQLARI VA PEDAGOGIK TAJRIBANING AHAMIYATI

Husnida USMONOVA,
Qashqadaryo viloyati Ko'kdala
tumanidagi 71-umumiy o'rta ta'lim
mabitining englis tili fani o'qituvchisi

Barchamizda ayonki, dars – bu ijodkorlik, lekin ijodkorlik faqat o'qituvchi uchun emas, balki o'quvchilar uchun ham ijodkorlikdir. O'quvchini darsda faol qatnashmasligi darsning muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keladi. Dars har bir o'quvchini ijodkorga aylantirishi, ularni darsda faol bo'lishga, qatnashishga, doimo fikrlari bayon etishga tayyorliliklari – o'qituvchining pedagogik mahoratini belgilaydi. Ayniqsa, englis tili darslarida ijodkorlik, innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi mashq va usullar darslarning qiziqarli va ijodiy yondashuvini ta'minlashga yordam beradi.

Ko'rsatish va aytish mashqlari. Bu mashqdan yangi so'zlarni mashq qilish maqsadida foydalaniladi. U o'quvchilarga yangi so'zlarni yodlab olgandan ko'ra ularni amaliy yo'l bilan yodda saqlashga yordam beradi.

Ketma-ketlik mashqi. Bu mashq tez-tez ishlatalib turiladi. Ketma-ketlik mashqlari yangi til materiali bilan ishlashning eng samarali usullaridan biridir. Ular har bir o'quvchiga yangi til materiali yoki qurilmani ishlatib ko'rishga imkon beradi. Ular juda tez bajarilishi mumkin. Ketma-ketlik mashqlari sind mashqidir. O'qituvchi yangi materialni tanishtiradi. Masalan: I like sewing. O'qituvchi oldin bir o'quvchi bilan mashq qilib ko'radi, boshqalar esa kuzatib, tinglashadi. U I like sewing. What about you? deb aytadi. O'quvchi o'zi uchun javob beradi va shu savolni (What about you?) so'raydi. O'qituvchi o'zi uchun javob beradi va shu qurilmani shu o'quvchi bilan yana bir marta mashq qilib ko'radi.

Yangi so'zlarni rasmlar bilan solishtirish mashqlari. Bunday turdag'i mashqlarda o'quvchilar yangi so'zlarning ma'nosini fahmlash orqali rasmlar bilan solishtirishadi. Ular solishtirishni tugatganlaridan so'ng javoblarini siz yoki o'toqlari bilan yangi so'zlar ma'nosini to'g'ri yoki noto'g'ri fahmlaganini tekshirib ko'rishlari kerak. Bu mashq o'qituvchining yangi so'zlar ma'nosini to'g'ridan-to'g'ri berishidek amaldagi uslubga qaraganda anchagini qiziqarlidi. U o'quvchilarning bilish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, englis tilidagi so'zni o'zları bilgan boshqa bir til bilan taqqoslash va shu usul bilan ma'noni

topa olish yoki topa olmasliklarini sinab ko'rish orqali. Bir tildan boshqa bir tilni o'rganishda foydalanish xorijiy tilni o'rganishda muhim ko'nikma hisoblanadi.

Pedagogik tajriba ham malakalarni amalda mustahkamlash metodlaridan biridir. Malakalarni amalda ko'plab metodlari asosan darsning mustahkamlash bosqichida dastlabki ko'nikmalarini shakllantirishda, dars jarayonida yoki uyda, laboratoriya og'zaki va yozma mashqlarni bajarishda, mavzu bo'yicha bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida amalga oshiriladi. Malakalarni amalda qo'llashdan asosiy maqsad egallangan fonetik, leksik, grammatic malakalarni erkin muloqot, fikr almashuv jarayonida ishlashiga o'rgatishdir. Malakalarni amalda qo'llash tabiiy yoki sun'iy nutq vaziyatlarida tashkil qilinadi. Ma'lumki, sun'iy ravishda yaratilgan nutq, o'quvchini o'rab turgan atrof-muhitga, vaziyatga mos kelmasligi tufayli o'quvchida uni o'rganib olish uchun yetarli darajada rag'bat uyg'otmaydi. Masalan, o'qituvchi bir o'quvchiga "Sen do'kondasan. Sotuvchidan bitta daftar va ikkita ruchka necha so'm turganligini so'ra!" qabilida kommunikativ topshiriq bersa, ikkinchi o'quvchiga "sotuvchi" sifatida unga tegishli javob berishni topshirs, bu sun'iy ravishda yaratilgan nutq, vaziyati hisoblanadi. Agar o'quvchi turmush ehtiyojlari tufayli sotuvchidan englis tilida yuqoridaq gaplarni so'rashga majbur bo'lsa, bu tabiiy ravishda yaratilgan nutq, vaziyati hisoblanadi. Buni hisobga olib o'quvchilar o'zlarining turmush sharoitida maktabda, ko'chada, do'konda, uchrashuv va hokazolarda duch keladigan tanishuv, fikr bildirish, fikrni rad qilish, fikrni qo'llab-quvvatlash, savol berish, savolga javob berishga oid turli mavzulardagi nutq, vaziyatlariga mos keldadigan nutq namunalarini haqiqiy nutq vaziyatlarida amalda qo'llashga o'rganadilar.

Xullas, o'qituvchining o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishdagi o'rgatuvchi faoliyati dars jarayonida nutq, faoliyatining barcha turlari buyicha ko'nikma va malakalar shakllantirishga yo'naltirigan turli-tuman metodlar, usullar, vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

TARIX DARSLARINI O'TMISH VA BUGUN QIYOFASIDA TASHKIL ETISHDA QO'LLANADIGAN USULLAR



Zulxumor QARSHIYEVA,
Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on
tumanidagi
11-umumiy o'rta ta'lim maktabining
tarix fani o'qituvchisi

Hozirgi vaqtida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilar oldida turgan eng muhim va dolzARB vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablari tashkil etilgan zamonaqiy texnologiyalar, interfaol usullarning barchasi o'quvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishiga, milliy urf-odatlarni o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi. Tarix darslari o'quvchilarni o'tmishdan saboq olishga, ajodolarimizning boy adabiy merosini asrashga va bugun qiyofasida tashkil etishga o'rgatadi.

Quyida tarix darslarida qo'llashda yaxshi samara beradigan, o'tmish va bugun qiyofasida tashkil etishda qo'llanadigan usullar haqida to'xtalib o'tishni joiz topdik.

"Sirlı sandiq" usuli. Bu usul o'quvchilarga mavzuni o'zlashtirishi uchun juda samarali usuldir. Ushbu usul vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o'quvchilar navbat bilan boshqaruvchi rolini bajaradilar. Sinf xattaxtasiga mashg'ulotda o'rganilgan mavzu yuzasidan savollar yoziladi, dastlab boshqaruvchi rolini bajarayotgan o'quvchi qayd etilgan savollarga asosiy tushunchalar kiritilganligini tekshiradi. So'ngra o'quvchilardan sind xattaxtasida yozilgan savollarga javob so'radi, to'g'ri javob bera olgan o'quvchi boshqaruvchi lavozimini bajaradi. O'quvchilarda boshqaruvchilik qobiyliyatini oshirish va sinda boshqaruvchi bo'lish uchun sirli

sandiqa tushmaslik, ya'ni savollarga to'liq javob berishga intilish, mavzuni diqqat bilan tinglash va mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirish ushun bu usul samaralidir.

"Davra suhbati" metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'limg oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

"Davra suhbati" metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'limg oluvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatishiga yordam beradi. Davra suhbating og'zaki va yozma shakkari mavjuddir. Og'zaki davra suhbati ta'limg beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'limg oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'limg oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'limg oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'limg oluvchilarning mustaqil fikrashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

"Tergovni bilimdonlar olib boradi" usuli. Bu dars mavzusini oldindan puxta o'rgangan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab tushuntirish matnlari bo'lib, bunda o'quvchilar dars mavzusini o'zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi. Biror mavzu o'rganilganda, albatta, bugun bilan bog'lanadi va hozirgi yosh avlod dunyoqarashi kuzatiladi.

Xullas, tarix darslarda innovatsion usullar muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki o'quvchilar bilimini mustahkamlashga, mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Har bir fan o'qituvchisi o'quvchini bilim olishga qiziqitira olishi, undagi yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro'yobga chiqarishi, buning uchun ko'ngliga yo'l topishi muhimdir.



Zubayda SOBIROVA,
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi
52-umumi o'rta ta'lim makkabining
amaliyotchi psixologi,
Qamarjon YAQUBOVA,
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi
13-umumi o'rta ta'lim makkabining
amaliyotchi psixologi

O'QUVCHILARDA O'TISH DAVRI VA UNDA O'QITUVCHINING VAZIFALARI, KASBGA YO'NALTIRISH KO'NIKMALARI

Ertangi kun mustaqil fikrlaydigan kadrlarni talab etar ekan, bugungi kunda maktablarda faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar ham zamon talabiga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zining ish uslubida qo'llashi, psixologik yondashishi, bu boradagi ishlarni davom ettirishi uchun muntazam o'z ishini nazorat qilib borishi lozim. Shu o'rinda o'qituvchining xislatlari haqidagi quyidagi fikrni keltirishni joiz topdik: "Agar o'qituvchida faqat ishga muhabbat bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi o'quvchiga faqat ota-onasi kabi mehribon bo'lsa, u barcha kitoblarni o'qigan, ammo o'z ishiga ham, o'quvchilarga ham mehri bo'lgan o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Agar o'qituvchi o'zida ishga va o'quvchilarga bo'lgan mehrni birlashtirsa, u mukammal o'qituvchidir" degan edi Lev Tolstoy.

Psixologlar o'smirlik davrining "yasharishi" tendensiyasini uzoq vaqtadan beri qayd etishgan. Nima uchun bu davr o'tish davri deb ataladi? Chunki bolaning rivojlanishida bolalikdan kattalikka o'tish sodir bo'ladi, o'smirning asosiy vazifasi o'zini anglash va ota-onasidan ajralib turish hisoblanadi. Nima uchun bolalarda bu davr qiyin o'tadi? Chunki ular tashqi va ichki jihatdan o'zgaradi, ba'zida ular uchun bu o'zgarishlarni qabul qilish va ularni nazorat qilish qiyin bo'ladi. Shuningdek, ular jamiyatda qabul qilinishni, o'zlarini muhim his qilishni xohlashadi. Buning o'rniga ular masxara qilishlari, tengdoshlarining tajovuzkorligi yoki zo'ravonlik qurbanlari bo'lishlari mumkin. Aynan shu yoshdagil bolalar ota-onalardan tushunishni va ularning barcha xislatlarini kutishadi. Buning o'rniga ular to'liq nazorat, tanqid va ta'qiqqlarga duch kelishadi hamda mustaqillikni xohlaydilar, lekin bunga erisha olmaydilar, chunki ular hali o'z harakatlari uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmalariga olmaganlar.

Bu davrda nima uchun ota-onalarga qiyin?

- ular katta yoshdagil bolalar bilan qanday munosabatda bo'lishni bilishmaydi;
- farzandlari uchun avtoritet bo'lishga odatlanganlar;
- o'g'il yoki qizni katta hayotga qo'yib yuborishga tayyor emasligi.

Aynan shu davrda o'quvchilarda o'tish davri va unda o'qituvchining vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu paytda ularni kasbga yo'naltirish, kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'tish davridan olib chiqish tavsiya etiladi.

Bugungi kun psixologlari o'quvchilarni kasbiy reja va niyatlarining shakllanishiga qarab to'rt toifaga ajratgan holda yo'nalish olib borishi lozim:

1. O'z kelajagini aniq belgilab oлган, faqat kelgusida ta'lim yo'nalishi va shu kasbni beruvchi o'quv muassasasini tanlash uchun maslahatga muhtoj o'quvchilar.

2. Qayerga o'qishga borishini bilmaydigan, aniq kasbiy reja va kelajagi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan o'quvchilar.

3. Kelgusidagi kasbini tanlagan lekin ayrim sabablarga ko'ra (sog'ligiga to'g'ri kelmasligi, imkoniyatlarining chegaralanganligi) bu kasbni egallay olmaydigan o'quvchilar.

4. Bir necha ko'p hollarda yo'nalishi bir-biriga teskari bo'lgan kasblarni tanlashda o'z imkoniyatlari va kasbning afzalligi emas, balki atrofdagilar, o'rtoqlarining fikri, maslahatlariga asoslanadilar.

Shu davrda o'quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan kasb-hunar turlari o'qituvchi va amaliyotchi psixolog hamkorlikda o'quvchilarni kasblarning demografik xususiyatlari haqida ma'lumot berish va o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyuştirishi, shuningdek, o'quvchilarda ularning shaxsiy sifatlarini hisobga oлган holda muayyan kasblar bo'yicha barqaror qiziqishlarni shakllantirishi, o'quvchilarni o'z kasbiy faoliyatni natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalari bilan tanishtirish lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazufalardan biridir. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMIY FAOLIYATNING MAQSAD VA VAZIFALARI



Barno XOLIQULOVA,
Jizzax viloyati Zomin pedagogika
kollejining maxsus fan o'qituvchisi

o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi. Bolalarni makkab ta'limga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar ta'limi faoliyat jarayonida hosil qilinadi. Bu jarayonda tayyorlov guruhlarida bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakalar va xohishi tarbiyalanadi. Bunda bolalarni mustaqillikka o'rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi. Ilk yoshdagil bolalar bilan olib boriladigan ta'limi faoliyat katta yoshdagil kishilarning har bir bola bilan rejali sur'atda muomalada bo'lishidan iborat bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad bolalarning nutqi va harakatini rivojlantririb borishdir. Bu esa bolalarni ta'limi faoliyatiga tayyorlash bosqichidir. Go'daklarda ixtiyoriy diqqat o'sib borgani sari bunday faoliyat bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalari bilan bir yo'la olib boriladi. Ta'limi faoliyat bolalardan aqilya va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyatni bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarga yangi bilim beruvchi ta'limi faoliyatdan maqsad – ularning yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrof'dagi narsa va buyumlar, voqealar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirishdir. Bunday ta'limi faoliyatga yangi obyektni kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur faoliyat hamma yosh guruhlarida o'tkaziladi. Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi jarayondir. Undan ko'zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarning anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o'rgatishdir. Buning uchun tanish obyekt kuzatiladi, ikki narsa solishtiriladi (xona o'simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o'yinlar, suhbatlar o'tkaziladi. Ta'limi faoliyat jarayonida tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o'zlashtirib olib-u, nima yaxshi o'zlashtirilganini bilib oladi. Tarbiyachi ta'lim jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar – detallar bilan boyitib boradi.



TA'LIM TIZIMIDA RAHBAR VA XODIMLAR MUNOSABATI HAMDA BOSHQARUV TIZIMI

Nodira CHO'LIYEVA,
Qashqadaryo viloyati Ko'kdala
tumanidagi 5-umumi o'rta ta'lim
mabitining ma'nnaviy-ma'rifiy ishlari
bo'yicha direktor o'rinnbosari

Ma'lumki, inson har doim o'sish va rivojlanishda bo'ladi. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishlari lozim. Har bir o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta'sirida amalga oshiradi. O'qituvchining faoliyatiga ta'lim muassasidagi bugungi sharoit hamda jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarni amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli ta'sir qiladigan odamlar guruhi bo'lgan pedagogik jamodagi shakllangan ta'limi muhit o'z hukmini o'tkazadi. Har bir pedagog jamoa jamiyatning bir bo'lagi sifatida uning barcha xususiyatlarni qamrab oladi. g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma'nnaviy va boshqa jabhalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda ixtiyoriy pedagogik jamoani tayinlangan rahbar boshqarishi tabii. Xo'sh, rahbarlik nima? Uning asosiy vazifasi va boshqaruv tizimi qanday?

Rahbarlik – odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqarvning tarkibiy qismidir. Shunday qilib, "boshqaruv" tushunchasi, "rahbarlik" tushunchasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Rahbar boshqaruv faoliyatida qator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy-pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlanirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi va hokazo. Shuning uchun ham rahbar yosh o'qituvchining o'zi tanlangan kasba mehr qo'yishi, o'qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o'rganishi va unda o'z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg'ulari rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir qiladi. O'z navbatida rahbar jamoada o'z o'rniiga ega bo'lib, u bilimi, muomalasi, ilmiy dunyoqarashi, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatda, maqsadga intilishda, ijtimoiy xulq va boshqalarda namuna bo'lishi zarur. Bundan jamoaning har bir a'zosi o'ziga xos ta'sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o'zaro ta'sirning ikki yo'nalishini, o'qituvchining jamoaga va jamoaning o'qituvchiga ta'sirini va bu o'zaro ta'sir ijobjiy yoki salbiy bo'lishi

mumkinligini hisobga olishi zarur. Ta'lim muassasasida turli dunyoqarash va madaniyatga ega, fe'l-atvori, aql-u zakovati turlicha bo'lgan, ishga layoqati alohida namoyon bo'ladigan o'qituvchilar mehnat qiladi. Bu hol ularning mehnati va funksional vazifasiga bo'lgan munosabatida ham ifodalanadi. Ixtiyoriy rahbar o'z xodimlarining barchasi bilan ham doimiy jonli muloqotda bo'lavermasligi aniq. Shunga qaramasdan barcha o'qituvchilar, shu qatori o'quvchilar ham rahbarlar bilan doimiy, bevosita o'zaro ta'sirda bo'lishi tarbiyaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Bunday bevosita ta'sir masofadan turib, muloqotsiz tarbiyaviy jarayonda vujudga keladi va undan rahbar ham, o'qituvchilar hamda o'quvchilar ham bir xilda ta'sirlanishlari mumkin. Ya'ni, o'qituvchilar va o'quvchilarning tashqi ko'rinishi, kiyinishi, yutuqlari, fan va sport yo'nalishlari bo'yicha turli musobaqalardagi g'alabalari rahbarning kayfiyatiga va uning reytingiga qanday ta'sir ko'rsatsa, rahbarning tashqi ko'rinishi, kiyinishi, bilimi, jamoadagi mavqeい, o'zi kabi ta'limga muassasalari rahbarlari o'rtasidagi obro'si, fan-teknika, sport va san'atga bo'lgan qiziqishi o'qituvchilar va o'quvchilarning faoliyati hamda o'zaro munosabatlariga shunday ta'sir ko'rsatadi. Ta'limga muassasalarida ekologik tarbiya ta'limga tarbiya jara-yonining tarkibiy qismi bo'lib, u o'qituvchilar va o'quvchilarda tabiatga ongli munosabatda bo'lish, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi hamda ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasbatidi.

Xullas, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetentligi turli shakllardagi pedagogik jarayonlarda shakllanib, rinojlanib boradi va mazkur jarayonlarda tarbiyaviy munosabatlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, buning eng asosiy sababi, o'qituvchilar o'zaro bir-birini va ustoz o'qituvchilarning xatti-harakatini, pedagogik faoliyatini kuzatadi, fikrlaydi hamda ularning qilgan va qilayotgan ishlariidan xulosalar chiqaradi, dunyoqarashi o'zgaradi, tushunchalari rivojlanadi.

GULBADANBEGIM VA “HUMOYUNNOMA”

Nodira ZOYIROVA,
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi
6-umumi o'rta ta'lim maktabining ijodiy-
madaniy masalalar bo'yicha
targ'ibotchisi



Sohibqiron Amir Temur yoxud buyuk shoh va shoir Zahiddin Muhammad Bobur avlodlariga to'xtaladigan bo'lsak, tarixiy asarlarda ularning ko'pchiligi ma'nnaviyati yuksak insonlar, ijodkor bo'lganlari, devonlar tuzganligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Ajdodlarimizdan chiqqan birinchi tarixchi ayol ham Temuriylar avlodidandir. Asrlar osha xalqimizning faxri, iftixori bo'lgan bu ayol Gulbadanbegimdir.

Bizni ham bir uchastkaga qo'ydi, birin-ketin kavlab, ketmon bilan yerni bo'shatib chopa boshladik, shaharning qizi bo'lganim uchun ketmonni dugonalarimga qaraganda beo'xshovroq chopar, eplay olmas edim. Shu payt ketmonni ko'tarib urishimni bilaman oldindi qatorda yer bo'shatayotgan o'zim tengqur qizni oyog'iga solibman, voy, ana qiy-chuv bo'ldi, yuragim to'xtab qolay dedi, juda ham qo'rqib ketdim. O'sha dugonamni bir yigit ko'tarib olib chiqib ketdi. Tepada, kanal qirg'og'iga yaqin joyda tibbiyat palatkasi bor ekan, shu yerga olib borishdi, men ham ergashib bordim. Asta mo'raladim, oq xalatlari, sochlari oppoq, rus ayol vrach boshini sarak-sarak qilib, "Дело очень плохо" der, dugonamning oyog'ini tovon qismini dorilar bilan yuvib, bint bilan tang'ib bog'ladi, ketma-ket ukol qildi. Keyin uni katta yo'l chetida turgan yonboshida qizil krest chizilgan "Pobeda" mashinasida Qo'qon shahriga olib ketishdi. Bilasanmi, bolajonim, bilmay qolib, e'tibor-sizligim uchun dugonam jabr ko'rди, ko'p yig'ladim, ko'p achindim, hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin, o'sha voqeadan so'ng ehtirot bo'ladigan bo'lganman.

Men esa onam so'zlagan voqeaga tushunib-tushunmay, allaqachon pinakka ketgan edim, onamning mayin yoqimli ovozi uzoqlardan eshitilar, qulog'imga alladay quyilar, pishillab issiq sandalning bir tomonida uyquni urar edim.

1973-yilning kuz fasli ham kirib keldi, dadam "Sarsanqum" deb nomlangan qamishlar bilan qoplangan katta ko'li bor cho'lda brigadir bo'lib ishlab yurgan kezlar edi. Hovlimizda tol xodalaridan eplab uzum uchun qilingan valish ag'darilip tushdi, novvotrang uzumlar yer bilan bitta bo'ldi, hovlimiz kattagina edi. Dadam (rahmatli) uzumni juda ham yaxshi ko'rgani uchun uning navini ko'paytirgan, husayni deysizmi, avak, shakarrangi deysizmi, ertapishar qora charos, uzuqlar... Qo'shnilarimiz havas qilishar edi. Cho'ldan non, kartoshka-piyoz, oziq-ovqat qilish uchun kelgan dadam, tomorqaga ekilgan teraklarni kesishga tushdi, Olchin qishlog'idan uchto't nafar ustalarni topib chiqdi, ularga ishlarni tushuntirib bo'lgach, o'zi bozorlik xarajatini ko'tarib cho'nga paxtazor dalasiga jo'nab ketdi. Bahorda dadam bizni ham olib borgan, haydalgan yerni tekislab, jo'yak ochib qovun ekishib kelganmiz, ukam ikkalamizni bu safar o'zi bilan birga olib ketdi, yo'lovchi mashinada manzilga yetib, katta yo'l chetida tushib qoldik. Dala shiyponiga olib boradigan shag'al to'kilgan yo'l bo'ylab qoplardagi kartoshka-piyozlarni ko'tarib otabolalar piyoda yo'lga tushdik. Shiyponga yetib borganimizda tush payti edi, soch-soqoliga oq oralagan oshpaz amaki bizni to'rong'i daraxtlari soyasidagi taxta so'rilardan biriga o'tirisha taklif qildi.

O'sha kuni kechgacha aka-uka qovun uzdik, yuk mashinasi bora oladigan joyga tashidik. Erinchoq quyosh tog'lar ortidan asta mo'ralab o'zining zarrin nurlarini, shabnam qo'ngan qovun paykal uzra sochgan damda ukam ikkımız yana qovun uzbib tashiy boshladik. Tushdan so'ng paykal boshidagi qamishdan, tol xodalardan qilingan kapada qovun so'yib yeb o'tirsak, yuk mashinasi boshlab dadam bir nafar ishchisi bilan kelib qoldi. Qovunlarni mashinaga ortib Marg'ilon shahrining dehqon bozoriga olib bordik. Qovunlarni bir sutka davomida sotib tugatdik.

Qishloqqa uyg'a qaytdik, yangi kesilgan teraklardan baland chiroyli uzm tok uchun valish qilib bo'lishibdi.

Bu teraklardan qilingan so'ritok hovlimizning husniga-husn qo'shibdi.

Opalarim birin-ketin o'z tengini topib turmush qurib ketishdi, yana hovlimizda qish o'z karomatini ko'rsatar, yanvarning jahidor izg'irini deraza oynalariga kelib urilib, naqsh chizib ketar, ostonaga qorni to'zg'itib uyub ketar edi. O'shanday kunlardan birida to'rt aka-uka sandal atrofida o'tirib, kitob o'qidik "Chin inson qissasi", onam men o'qigan kitobdagi voqealarga o'z fikrini bildirar ekan, "E-he, urushning, urush boshlagan odamlarning uyi kuysin, qancha begunoh odamlarning yostig'ini quritgan" deya afsuslanib esladi.

- Bilasizlarmi, o'sha davrlarda Qo'qon shahrida hozirgi CHPK paypoq to'qish fabrikasida askarlar uchun fufayka, qo'lqop, paypoq, harbiy dala formasi, tikilib frontga jo'natilar edi, men tengqurlarim bilan birga shu fabrikaga yosh bo'lsam ham ishga kirganman,

o'sha damda 1943-yilning kuzi xazonrezi, bir kun yomg'ir bo'lsa, ertasi shamol esar, tinkani quritardi. Bizga kupon berilgan, ikki mahal ovqatlanamiz, uyg'a qaytishda kuponiga buxanka non olib ketamiz. Bir kuni navbatda turgan edim, mendan oldinda o'rta yoshlardagi ayol turgan edi, kuponiga bir dona qora buxanka oldi, burilib ketishga chog'langan edi juldur kiyimi kir bo'lib ketgan o'g'il bola nonni tirmalab ayolning qo'lidan tortib olib qochdi. Epchillik bilan uning ortidan yugurdim, qivib yetib nonni qo'lidan tortib oldim va haligi ayolga olib kelib berdim, u ayol yig'lab turib meni duo qildi. Nonimni olib uyg'a ketayotgan edim militsiya xodimi haligi juldur kiyimli bolaning qo'lidan ushlab sudragancha qayoqqadir shahar ko'chalaridan birida ketib borar edi. Keyinroq bilsak, shaharda mehribonlik bolalar uylari tashkil etilib, yetim bolalar hamda urushdan vatanimizga evakuatsiya bo'lib kelgan bolalar uchun ekan.

Ko'chalarda sang'ib non izlab yurgan bolalarni o'shanday uylarga olib borishar edi.

Onam hikoya qilishdan to'xtab xo'rsindi, bir nimalar deb pichirlab duo o'qidi va bizga mehr bilan tikilib "Agar akalaring vafot etib qolmaganda hozir besh nafar o'g'il bola uymini to'ldirib o'tirgan bo'lar edilaring" dedi va ko'zlariga yosh oldi, biz onamizga dalda beridik "Biz bormiz, onajon, qayg'urmang, hamma buyurgan ishlarining bajaramiz, qanaqa edi akamiz gapirib bering" deya so'radik.

- Katta opalaringdan keyin tug'ilgani bir yoshlik chog'ida tunda yig'lab qoldi, hech ko'nmaydi, tinmay yig'laydi, isitmasi chiqib yonyapdi, qishloqda hech kimda yengil mashina yo'q, bir mahalladoshimizda qayiqli motosikl bor edi, shu odamni uyg'otib tuman markaziga olib bordik. Ertalab doktorlar o'g'limning murdasini olib chiqib qo'limga tutqazishdi, uzoq yig'ladim, qattiq yuragimning og'rig'iga chiday olmay dod solar edim. Dadalaring dalda berib yupatar, hech dardimga malham topa olmas edim. Biron hafta mazam bo'lmay dalaga chiqqa olmadim, qo'shnimning ikki yoshli o'g'li, ustalar ohak ivitish uchun kovlagan chuqurga emaklab borib tushib ketibdi, dala shiyponida rosa janjal bo'libdi, bechora Mayramoy o'g'lining murdasini quchib qattiq qarg'anib yig'labdi. O'sha voqeadean so'ng qo'shnim dalaga chiqmay qo'ydi. Hech qancha o'tmay Namangan viloyati Mingbuloq tumanida yashayotgan qizim, opalaring yig'lab kelib qoldi, oh baxti qaro qizginam-a, ikki yoshli o'g'li Xayrullo soyga tushib ketibdi, vafot etibdi, qattiq yuradim, qizim uzoq vaqt hijron azobida o'rtaib yurdi. "Farzandni yo'qotish ona uchun og'ir, bolajonlarim" deb bizga uzoq umr tilab duo qildi.

- O'g'il bola ota-onaning beliga quvvat, dardiga malham, bo'lishi kerak, otaning qanotlari bo'lishi kerak, eslarining chiqarmang, hamma narsani davosi vaqt, lekin o'sha erta so'ngan yulduzlarimiz hech qachon onalarning yodidan chiqmaydi.



Muqaddasxon AHMADJONOVA,
Farg'on'a viloyati Beshariq
tumani

BOLALARGA BERING DUNYONI

Bolalarga bering dunyoni,
Hech bo'lmasa bir kecha-kunduz.
Bevafo deb atalmas edi,
Dunyo degan shunday ulug' so'z.

Hayrat bilan boqing olamga,
Norasida nigohi bilan.
Xuddi qushdek yengil tortasiz,
Chekinar g'am, o'lim va kafan!

Bolalarning dunyosi qiziq,
Bunda yo'qdir rivo, adovat.
Hech kim mansab, moltalab emas,
Bunda yo'q kibr, kek va nadomat.

Ming xil taom, ziyofat ham yo'q,
Bir burda non nafshi qondirar.
Farishalar makoni bu yer,
Bunda shayton o'zin yondirar.

Bir silkinib poklanar dunyo,
Uni qutlar quyosh – nurafshon.
Tikan o'smas biror go'shada,
Jannatmisol yashnaydi jahon.

Bunda erkin yashar ohular,
Ovchi ham yo'q, vahshiy hayvon ham.
Kalxat, zog'lar uchmas samoda,
Chamanlarda bulbullar xurram.

Baxtiyorlik hukmon bunda,
Yomonlikdan aslo yo'q asar.
Hech kimsan qolmas armoni,
Ezgulikdan olam munavvar.

Bolalarga bering dunyoni,
Ozor chekmay shodlansin yurak.
Beg'uborlik, buyuklik sirin,
Bolalardan o'rganmoq kerak!

Bolalarga bering dunyoni!

Iste'dodli shoira Muqaddasxon Ahmadjonovaning "Dil durlari" (2012-yil), "Vatan madhi" (2016-yil) she'riy to'plamlari nashr etilgan. 2019-yilda esa Cho'lpion nomidagi nashriyotda uning "Tohir va Zuhra" nomli dostoni chop etildi. Mumtoz janrlarda yozilgan g'azallar, muxammas, rubozi va tuyuqlardan iborat "Sevgan ko'ngil sadolari" nomli devoni nashr etilish arafasida.

QOSHLARING

Muncha qunduzdek qoradur, ey sohibjamol, qoshlaring,
Bir chimrilib jon oladur yo misli qattol qoshlaring?

Ayo, ohu ko'zlarini qo'riqlovchi, qo'sh qilichmi?
Mahliyo boqsam shunchalar oldimu malol qoshlaring?

G'amza o'qini otmoqqa shaylangan qo'sh kamonmu yo,
Oshiq qalbim bo'lsa nishon, suyungay darhol qoshlaring!

Oromimni qarog'ladi, qaroqchimi qo'sh qarog'ing?
Ishq balosin soldi boshga yo o'sha battol qoshlaring?

Nigohlarim silasalar uchib qo'ydi payvastalar,
Munchalar ham jozibador yo yangi hilol qoshlaring?

Qo'lingni so'rayman, sanam, rozi bo'l, to'ylar qilay,
Suyub, xumorim bosilsin, ul oshi halol qoshlaring.

Ey Muqaddasbonu, oshiq ishqimi sharh aylading,
Ikki dilga ayt, iloy, topsinlar visol qoshlaring.

HAMON TUSHLARIMDA...

Hamon tushlarimga kirasan tulpor,
Oppoq qanoqlaring go'zal, betakror.
Ilhom qaytib kelar shu tun qalbimga,
Hislar jo'shqin... Yurak qordek beg'ubor...

Yana she'r yozmoqni istaydi ko'ngil,
Oq otta uchmoqni qistaydi ko'ngil...
Oq tulporqa minib olam kezaman,
Gul Vatan mehridan yashnab ketar dil!

Go'zal bog'-rog'laring jannatga qiyos,
Sehrli tog'laring viqoringga mos.
Dasht-u cho'llaring ham ko'zga to'tyo,
Gullagan yantoqdan zavq olganim rost!

Bir umrlik orzum Ka'baga kelib,
Xayol senga qaytdi shamoldek yelib.
Ka'badek muqaddas, aziz Vatanim!
Sog'inching o'rtadi bag'rimni tilib.

Sog'indim sharqirab oqqan soyimni,
Kulgan quyoshing-u, to'lin oyimni.
Gul-u rayhon o'sgan chorbog'imni ham,
Shirin nabiramni, erkatoymanni...

Parilar makoni, go'zal Farg'onam!
Sen baxtim qasrisan, Vatan – yagonam!
Sha'ningga bir doston bitmasa agar,
Shoirligim yolg'on, sinsin bu qalam!

BAHOR QIZLARI

Sumalakrang suvlarda emas,
Cho'miladi nurga yalpizlar.
Yuzlaridan o'pib shabboda,
Ifordan bir orom izlar.

Jannah bo'y tutar olamni,
Qaldirg'ochlar hidlar charx urib.
Quyosh gul – momaqaymoqlar,
Xush jilmayar yalpizni ko'rib.

Muncha go'zal, muncha xushro'ysiz?
Bahoroyning yashil qizlari!
Suv so'ylagan ertakni aytning,
Yuragimda qolsin izlari.

Xayol surib ariq bo'yida,
Ash'or bitmoq eng baxtli onim.
Bir yalpizdek Vatan bag'rida,
Yayrab yashash – shirin armonim...

KONSTITUTSIYA – HAYOT KITABI

Tabiatning temirdek qonuni bor,
Unga amal qilar borliq, koinot.
Bu qonun buzilsa, Alloh qahriga
Duchor bo'lgusidir ul gunohkor zot.

Ibrat olib tabiat hukmlaridan,
Konstitutsiya yaratdi bashar.
U – hayot kitobi, u – baxt oftobi,
O'qib, amal qilgan baxtiyor yashar.

Konstitutsiya – yashash qonuni,
Har bitta davlatning o'z kitobi bor.
Olamning tinchligi abadiy bo'lur,
Har bir yurtda qonun bo'lsa ustuvor!

Jahonning jannati O'zbekiston ham,
Egadir o'zining baxt kitobiga.
Obod yurtning ozod xalqi yashagay,
Amal qilib qonunning har xitobiga.

Fuqarolar burchi, ham huquqlari,
O'z aksini topgan har bir qonunda.
Bu oltin kitobni o'qing, zamondosh,
Amal qiling, baxtning kaliti shunda!

Agar bilmasangiz o'z huquqiningiz,
Firibgar, kazzobga o'la bo'lasiz.
Adashib hayotning so'qmoqlarida,
Baxingiz topolmay, guldek so'lasiz!

Jamiyat, oila oldida, albat,
Burchingiz bajaring, yorug' yuzingiz!
Shunda sizdan rozi bo'lgay, xalq, Vatan,
Ham baxtiyor yashar o'g'il, qizingiz!

Konstitutsiya kuni muborak bo'lsin,
Mustaqil diyorim fuqarolari!
Qalbingizga ulug' orzular to'lsin,
Olg'a, yangi hayot, kelajak sari!



O'tkirbek NARBAYEV,
Jizzax viloyati Do'stlilik tuman
axborot-kutubxona markazi axborot
kommunikatsiya texnologiyalari va
raqamlashtirish xizmati rahbari

KITOB – KELAJAK POYDEVORI

Ma'lumki, jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondashuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanlar ekan, bunda, albatta, kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to'g'ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdag'i resurslar bilan ishslash, ma'lumot-bibliografiya va barcha turdag'i axborot materiallaridan o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo'lgan ma'lumotlarni ola bilish, o'z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanan, axborot-kutubxona muassasasidan to'g'ri foydalinish yo'llarini o'rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Axborot olish madaniyatini to'liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon atamasini qo'llash o'rinnlidir. Safo Matjon: "Kitobxonlik – o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoxchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishimi, ya'ni asar "tili"ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasini ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi". Uning fikricha, kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobning kelajak avlod tarbiyasidagi o'mi va roli haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: "Kitob – o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning sakson yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb aytay olmayman". Ta'lim o'qitish, o'qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyati tarbiyalash ta'lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o'quvchilarini izchil shakllantirib borishni ta'minlaydi. Kitob – bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo'nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg'ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma'naviy o'g'italarini ilg'ab olish va bular asosida o'z hayot yo'li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o'qigan kitobidan yangilik topish, ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir. Haqiqatan ham, kitob insonni barkamollikka yo'llasa, uni o'qimaslik johillikka, ma'rifat-sizlikka olib kelib, natijada bolada ma'naviy qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, oiladagi muhim vazifa – kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas. Yosh avlodda kitob o'qish ishtiyoqini shakllantirish niyoyatda murakkab jarayondir. Zero, kitob – kelajak poydevori, yurt tarraqqiyoti kaflidir. Ammo hozirgi davrda televizor qisman kitob o'qishni siqib chiqarayotir, degan e'tirozlar ham paydo bo'lmoqda. Lekin televizorda biror ko'rsatuvni ko'rish uchun har bir inson tayyorlanadi, o'ziga qulay sharoit yaratadil. Teledasturlar qaysi ko'rsatuvni qachon ko'rishga o'rgatadi. Agar kitob o'qish uchun ham ota-onalar ana shunday sharoit yaratса, televizor ko'rish va tanlab kitob o'qishni, qiziqib o'qishni o'rgatsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uyg'otish, uni avaylab-asrashni tarkib toptirishdir. Boladagi barcha tarbyaviy xislatlardan dastlab oilada shakllanadi. Demak, kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish, ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish muhimdir. Kitobxon o'quvchi oilada o'rgangan hayotni kitobdag'i hayotiy voqealar bilan boyitib, uning hayot haqidagi tushunchalarini, insoniy fazilatlari, yaxshilik, qadriyatlarini, avlodlari hayoti bilan fikrani, Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik fazilatlari yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqe-a-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalananadi, unda o'smi yoshdag'i kitobxon ko'p fazilatlarni o'rganish, ma'nан boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin.

Xullas, bizni barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot – kitobni qadrash barchamizning burchimizdir.



KURMAKIY

(Hajviya)



Toshpo'lat XO'JAMOV,
Navoiy viloyati Xatirchi tumani

Mahallaqo'm raisi to'y kechasini ochib: – "Davrani qoyilmaqom olib borish uchun maktabimiz o'qituvchisi Qalqonov Qilich ukamizga ishonch bildiramiz!" – deb mikrofon tutqazganida, dastlab u og'iz juftlolmay ancha dovdirab qolgan edi. Ammo adabiyot o'qituvchisi emasmi, suxandonlik san'ati bilan el og'ziga tushib ketdi. Qarasa, shon-shuhurat bu yoqda. Ana-mana deguncha gap bilan uchib borayotgan qushni urib tushiradigan, og'zidan olov purkab, osmonni yerga qapishtiradigan bo'ldi. Hatto to'yi bor dovrug'li mansabdorlar ham avval unga uchrab, navbatga ilina boshladi. Endi kimsan – Qilich Qalqonov! Davralarda quloch-quloch she'rlarni yod aytganda, ellik-ellik qilib turganlar sariq yog'dek erib ketishini ko'rib, daryodek toshardi. Ammo u paytlar insofli ekan, she'r mualliflarini tilga olmay o'tmasdi. Bora-bora she'rlar muallifsiz yangray boshladi. Demak, muallifsiz she'rlar kimlarning nazdida davrakashning o'ziniki, bo'lmasa kimniki? Endi u shoirnamo yoki shoirning o'zi emasmi? Haddi sig'adigan gazetalarda she'rlari bilan ko'rinish bermasa, bo'lmash-ov...

Ana, Qilich Qalqon! Taxallus ham o'zi bilan birga yo'rgakda tug'ilgan ekan – Qilich Qalqon!

Davrakashlik uni ko'tarmalik "shoir" O'roq Bolta bilan tutashtirib yubordi. Sababi: uning to'ylarda foydalanish uchun bergen bir tutam hech bir gazetaga ildirolmay yurgan "she'r"lari edi. Shundan beri Qalqoniq qaysi to'uda rais bo'lsa, O'roq Bolta ham hozir-u nozir. Ular uchun "Chuqursoy" bilan uch toshlik yo'l "Ko'tarma" qishlog'i telefon orqali bir qadam. Maqtov-u olqishlar do'ldek yog'dirilib: "...tabrik uchun so'z to'yimizning eng aziz mehmoni shoir O'roq Boltaga!" – deb iltifot ko'rsatiladi.

Albatta, shoirdayam xislat yo'q emas. Anchayin so'zlarni qofiyalashtirib, o'tindek qalashtirib Qalqoniya xos baland pardalarga ko'tarib, urg'u berib she'rmisan she'rغا aylantirib yuboradiki, qarsaklar zarbidan quoqlar bitib, sarxush mehmon-larning qulab tushishi hech gapmas. Nufuzli mehmonlar qurshovidagi O'roq Bolta stoli girdida to'y sohibidan tortib oqsoqollargacha girdikalapak, o'yinchili pildirab kelib maqom qiladi. Tandirkabobdan kaklig-u bedana kabobgacha – muhayyo.

Juftlarning "shoir"lik nufuzidan bozorlarda ham foydalanishiga nima deysiz?

Shoir O'roq Boltaga o'roq kerak, Qalqoniq uni sotuvchi – temirchiga tanishtiryapti:

– Qarang, qanday baxtli savdogarsizki, xaridoringiz shoir O'roq Bolta! O'roqlaringizdan narxini kelishtirib aystsangiz? Qolaversa, shunday shoirimizga sovg'a qip yuboradigan she'riyat qurban, madaniyatli savdogar ko'rinasiz, otaxon.

Temirchi maqtov-u iltifotdan iyib ketdi, ammo shoirga sinovchan tikilib:

– Shoir bo'lsa, qani, she'rlaridan bitta eshitaylik! – deb qolsa bo'ladimi?

Xaridor "shoir" O'roq Bolta bir o'roqni tanlab, yuzini barmoqlari bilan sinay-sinay she'r aytib, narxini so'radi:

*Ayting, qancha so'rog'ingiz,
Temir-tersak quroq'ingiz?
Yo'qsan yo'qqiz so'm bo'lsayam,
Sotib olay o'rog'ingiz!*

Temirchi dabdurustdan aytigan she'r dan ang-rayib turdi-da, o'zicha, ma'nosini fahmlabmi-fahmlamay kuldil:



– Ha- a, Boltoiy deng! Qalqoniq do'sti O'roq Boltaning badihago'yligidan faxrlanib, yelkasini uqalay-uqalay temirchiga yuzlandi.

– O'zimizam shoirga taxallus topolmay yuribmiz, lekin "Boltoiy" siz aytganday jarangli chiqsayam, mazmuni yuzidek sovuq-da, otaxon! Fikrga O'roq Boltaning o'zi aniqlik kirtmoqchi bo'ldi:

– G'afur G'ulom: "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak", – deganlarida ana shu "bolta"ni nazarda tutgan, ha. Kasbingiz bir temirchi bo'lsa, buni siz qaydanam bilardingiz? Temirchining rang-quti bo'zarib peshanasi garmondek tirishsa-da, o'zini bosdi. Ammo "shoir"ni tuzlab tashladi:

– Lekin adabiyot atomdan kuchliligin G'afur G'ulom emas, Abdulla Qahhor aytganligini bilaman. He-ye, shoir bo'lmay har narsa bo'ng-yey! – deya bosh chayqab afsuslanib qoldi.

Badihago'yligidan mag'rurlanib turgan shoir ikkilanib qizardi. Xayriyatki, Qalqoniq unga qalqon bo'lib xijolatdan qutqardi:

– To'ppa-to'g'ri, bu gapni Abdulla Qahhor degan, lekin shoir sizni sinamoqchi edi, ha.

Shunaqa odatlari bor. Qarang-a, bilarkansiz, zamonamizda hamma shoir! – deb shaytoniylikka o'tdi. – Qo'ying bu gaplarni, o'rog'ingizga qancha beraylik?

Narxini so'ramang, – dedi temirchi Qalqoniya jilmayib. – Shoir o'g'lim aytganday, yo'qsan yo'qqiz so'm siz uchun. Lekin tanimadingiz, shekilli, o'g'limning to'yida davraboshilik qip aytgan ichakuzdi she'rlaringiz esimda. Siz Qilich Qalqoniq desa, deguliksiz. Tilaklaringiz qilich-u qalqon bo'p balo-qazolarni daf etganligidan o'g'lim Halimjon topgani bilan baxt-saodatli, bola-chaqali bo'p ketgan.

Xaridor "shoir" kissa kavlab bir dasta pulni do'stiga tutqazdi. Qalqoniq yigirma yetti ming sanab temirchiga uzatdi. U sanamay mamnun duo qilib qoldi. Sal yurgach, o'zga bir temirchidan o'roqning bozor bahosini shoir so'rab bildi. Bahosi o'ttiz besh ming! Demak, do'sti Qalqoniq sharofatidan o'n ming foyda qilibdi.

– Sholining orqasidan kurmaklar ham suv ichida! – kuldil qah-qah urib O'roq Bolta.

– Topdim, topdi-m! Yo'q, yo'-q, men emas, o'zingiz topdingiz. Taxallusingiz bugundan boshlab – Kurmakiy, ha, Kurmaki-i-iy!!

Quvonchdan Kurmakiyning ko'zlaricha qazab ketdi. Endi u taxallusli haqiqiy shoir O'roq Boltayev – Kurmakiy edi-da.

Taxallus ilhomidan "jo'shib" ketdi u:

– Yashasin bozor, ko'rsatmagay ozor, hech kimsani aylamas xor, qadrin bilsang – or, bilmasang – mor, shoirlarga ilhom-u ash'or: ... bor, ... zor, ... tor, ... yor-r-rr!!!

– Ha, Kurmakiy, ja-a suyulib ketdingiz, nima bo'ldi sizga? – Qalqoniq silkilab o'ziga keltirma-ganda, kim biladi, "shoir" bozorda qancha "mumlis"larini o'ziga "rom" qilib qo'yarmidi. Xullas, yana bir bora Qalqoniq qalqon bo'lib do'stini sharmandalikdan himoyalab qoldi. Ammo uning mana bu luqmasidan Kurmakiy lol qotdi-qoldi:

– Kurmakiy, kurmak nima o'zi?

– Kurmak – kurmak, shuniyam bilmaysizmi?

– Kurmak sholining do'stimi yo dushmani?...

– A-a-a, nahotki?!

Qalqoniq esa endi qalqonlikdan voz kechdi, shekilli, rastalarni oralab olomonga singib borardi.

ZAMONAVIY ERTAK

(G'irt shevada)

Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan, telefonlar zarbidan hamma bugun o'q ekan. Bir mahallada nom qozongan ahil "Uch og'ayni botirlar" yasharkan. Ularning yuqori sinflarda o'qiydigan uch o'g'li ko'chada to'p tepiship, o'ynay-o'ynay to'pam qop o'zaro tepiship, yoqavayron otalariga arz qilishihti. Urho-surga "uch og'ayni botirlar" ham aralaship, san-sanlaship ketibdi. O'zlariga kelgach, Aka botir ota o'mida emasmi, ukalarni insofoga chaqirihti:

– Kelinglar, ularimizni chaqirip tarbiyasini bi-i-r tekshirip ko'raylik-chi? Bizdi bolalar shuytip yasharkan.

– Shu uchunam men ulimga aypon degan telpon oberganman! – depti g'o'dayip O'rtancha botir.

– Ulimda telpon-pelpon emas, uch shkaf kutubxonachasi bor! – maqtanipti Kenja botir. – Shu uchunam silardi bolalaringdan aqlli!





– Aka-uka botirlar keliship, ularini sinashipti. Kenja botir o'zbekcha savol bergenakan Aka botir:
 – O'zbekchayam gapmi, hamma biladi. Hozir maktapda rus, nemis, ingliz darslari sinfni ikkiga bo'lip o'qitilyapti. Malimlarigayam ikki baravar maosh to'lanyapti. Yaxshisi, chet tillardan savol ber,
 – depti. Kenja botir kissasidan yuz ming so'm chiqarip o'rtaqa qo'yipti:

– Qaysing nemis tilida yuzgacha sanasang, shu pul seniki!

Javob berolmay biri shiftga, biri yerga qarap qopti. Kenja botir o'g'li og'zini juftlaganda, "indama" degandek biqiniga turtip qo'yipti.

Kenja botir biri shiftga, biri yerga qaraganlar mushkulini oson qilish uchun: "shift" va "yer" nemischa nima deyiladi? – so'raganda, aytolmay izza bo'p yig'lab yuborishipti. Ularni yupatmoqchi bo'p Kenja botir eng osoni "tosh"ni ruslar nima deydi? – dep turganda, bobosi kep qop, bizar o'qiganda, "kamen" derdi depti.

Aka botirlar ranjip: "Senikiyam ing deyolmay qoldi-ku?! – dep o'ch olmoqchi bo'pti. Kenja botir ulti dangal javop beripti, chunki kutubxonachasi bor-da!

Aka botirlar bo'sh kelmay:

– Seni bolangdi malimlar ayirib o'qitarkan, bir nima cho'zgansan-da, nega ayrimchalik qiladi, insop qomapti shulardayam! – dep maktabga yuguripti.

Kenja botir o't olgan akalarim malimlarga bir ish qip qo'ymasin dep, ortidan qomapti.

Direktorga uchrab: "Bizar nemis, ingliz, rus tili malimlari darsiga kirip tinglasak, sinfti ikkiga bo'lip o'qitsalaram nega bolalarimiz bilimsiz, erkin gapirolmaydi, – deganakan, direktor nima depti deng:

– Ularning darsiga siz tugul menam kirolmayman. Nimamizdi tekshirasiz? "Sertifikat"imiz bor-ku! – dep qo'yaydi. Nima qilay? – dep o'kinipti.

Ular shu ketishda mahallaqo'mga arz qipti. Uyam bosh qaship:

– Menam mutaxassis bo'lmasam, allaqachon shu mavzuda arz qiluvdim shuytip aytuvdi.

Yaxshisi, Xizr buvaga Qur'on tilovat qilsakmikin deb turganakan, u hammasini biladi. Xona larzaga kep, poldan shiftga tuzon ko'tarilip, Xizr buva paydo bo'p qopti.

– Eshitdim dartlaringdi, yuringlar maktabka degach, mahallaqo'm jur'at qip uch aka-ukalardi ergashtiripti. Direktor malimlardagi kabinetga chorlaganakan yana shu gap. "Sertifikat"imiz bor, mana ko'ring! – dep, Xizr buvani yoqasidan olmoqchi

bo'pti. Xizr buva qarasa, sharmanda bo'lishi aniq. Shunda direktor janoblariga:

– Bularni qo'ying, bolalarimiz davomatini ko'raylik? – degach, noiloj sinflarga boshlapti. Qarashsa, 8-11-sinflar bori besh-oltitadan oshmaydi.

– Bu nima gap? – deb tutoqib Xizr buva so'rasha, kursga ketgan deb o'zlarini oqlashdan uyalmapti.

Xizr hazratlari eslatpi: "Aytmoqchi, ijodiy-madaniy masalalar targ'ibotchilarimiz nima qilyapti ekan?" – dep, chaqirtiripti. U ayqalip-chayqalip kep, Xizr buvaga nima depti deng:

– Qo'shin tortip m-m-maktabka aralaship n-n-nima qip j-juripsiz?! Q-qaydaydim, t-to'ydaydim! – dep kayfini yashirolmapti.

– Ijodiy-madaniy masalalar nimaligini bilasizmi?

– Ha, bilamiz sizni maqsadingiz j-jon olish bo'sa, o-op ketavering. B-bir menmi bekorchi, hayla p-psixologlardan s-so'rang!

– Devoriy gazeta bormi, nashriy gazetalarga obuna qanday?

– Devoriy gazitmi, j-juring, k-ko'rsataman. Mana!!! Ko'rsalar, bir taxtachaga faqat besh-oltita rasm yopishtilgan, xolos.

– Bu nima?! – so'rapti Xizr buva jahli chiqib.

– Devoriy gazit! Bo'lmasa nima? Sh-shuniyam bilmaysizmi?

Xizr buva o'ya tolipi:

– Shuncha yil jon olishga kelgandayam bunday yuzga choparlarni ko'rmapman.

– Xa, kayfi borakan, lekin hech kim odam-garchilikni psixologlarday bilmasa kerak, deya psixologni yo'qlabdi.

– Kutubxonada qancha badiiy kitoblar bor?

– Uni kutubxonachidan so'rang-da, men psicho-ologman!

– Psixolog bo'lsangiz, necha xil temperament bor?

– Domlalarimiz to'rt xil deganday bo'lувди, – depti egardon tushsayam oyoq uzangida.

Shu onda Xizr buvani telefoni jiringlap qopti. Shoshib direktorga yuzlanipti:

– Uzr, o'sal yotgan bir kasalim jon talvasada yotganakan. Menam ishimni unutip dunyo ishlariiga aralaship ketippan-da! – dep shoship, qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunday yo'qolipti. Uch og'ayni botirlar bu tushmi yo'ngimizmi dep lol qolaveripti. Illohim, tush bo'lsin-da!!!

CHIQSANG

Boshim ko'kka yetar,
Yo'limdan chiqsang.
Baxt ham birga ketar,
Qo'limdan chiqsang.
Taraflar chang solmas,
Sarmastligimga.
Na-da o'ngim, na-da,
So'limdan chiqsang.
Ne qilay gul bilan,
Bir bo'lsa yuzing.
Gulyuzim, har tutgan,
Gulimdan chiqsang.
Qalbim kitobini,
Varaqlar chog'im.
Muhabbat atalmish,
Bo'limdan chiqsang.
Men uchun qaytadan,
Tug'ilmoqqa teng.
Beshikast, sog'-omon,
O'limdan chiqsang.
Qaniydi, bir necha,
Asrlardan so'ng.
Go'rimni ochsalar,
Go'rimdan chiqsang.



GULIM...

Seni juda qattiq sevaman,
Qahri qattiq dunyoda, gulim.
Seni jordan ortiq sevaman,
Jabri ortiq dunyoda, gulim.

Sen shunday gul, afsonaviy gul,
Yuragimda ungan tabiiy gul,
Men choponi eski, yirtiq qul,
Ko'ksi yirtiq dunyoda, gulim.

Birda yig'lab, bir tinib qiynar,
Talpinib va chekinib qiynar,
Chap ko'ksimga berkinib qiynar,
Yurak tirtiq dunyoda, gulim.

Tannozlarning tortmagan ta'bi,
Lafzsizlardan ortmagan labi,
Bir o'zingga, bir o'zim kabi,
Bormi intiq dunyoda, gulim?

Seni juda qattiq sevaman...

VALENTINA

Valentina, ko'zlar ma'sum,
Ey shirin qiz, ey shirin kalom.
Deysan: – Assalomu alaykum,
Deyman: va alaykum assalom.

Valentina millati bo'lak,
Lek yaqinmiz qosh bilan ko'zdek.
Munosib tan ilzagan ko'ylak,
O'zga yurtda tug'ilgan o'zbek.

Valentina, hatto tushimni,
O'ziniki qilgan mulkdorsan.
Yolg'iz xaridori hushimni,
Toki men bor ekanman, borsan.

Valentina, ko'zlar moviy,
Ey shirin qiz, ey shirin kalom.
Diyordorlashish bo'lsin davomiy,
Etaversin suhbatlar davom.



Nizomiddin MADRAHIMOV
(Abu Dangal),
Farg'ona viloyati Dang'ara tumani

BIROVNING GO'RIGA BIROV KIRMAVDI

Har qancha urinmang besamar ketar,
Muzlagan yurakka olov kirmaydi.
Insoning o'z tili boshiga yetar,
Birovning go'rige birov kirmaydi.

G'ar ham otinoyi bo'lsa bir kuni,
Aroqxo'r masjidda tursa bir kuni,
G'iybat qilmang, qo'ying siz uni-buni,
Birovning go'rige birov kirmaydi.

Zavq oling umrning har bir chog'idan,
Yomonroq dog' yo'qdir ko'ngil dog'idan,
Qo'ymi ham osishar o'z oyog'idan,
Birovning go'rige birov kirmaydi.

Xulosa yasashga shoshmang, birodar,
Qo'ying haddingizdan oshmang, birodar.
Qazo qilsa-da bir kunda barobar,
Birovning go'rige birov kirmaydi.

Har qancha urinmang yo'qdир foydasi,
Muzlagan yurakka olov kirmaydi.
Hayotning azaliy-azal qoidasi,
Birovning go'rige birov kirmaydi.



EL SUYGAN HOFIZNING HIKMATLI SHE'RIYATI

Bekboy Qurbonov haqida so'z borganda, uning Samarcand viloyati Nurobod tumanida istiqomat qilib, to'y-bazmlarda qo'liga torini olib, yurak-yurakdan kuylaydigan el suygan hofiz ekanligini et'tirof etmay iloji yo'q. O'zim bir necha bor guvohi bo'lganman: Bekboy aka qo'shiq kuylaganda hamma jim qoladi, tabiat orom oladi. Inson xayolan olis tarix sahifalariga tushib qolgandek bo'ladi. Karvonda ketayotgandek, tuya qo'ng'irog'ining hamda sarbonning ovozini eshitgandek bo'ladi.

Ey sarbon, ohista ron, oromijonim meravad...

Bekboy aka dard bilan kuylaydi. Uni garchi xalq iste'dodli xonanda deb bilsa-da, kamina uning shoir sifatida ham yaxshi she'rlar yozishini e'tirof etaman. Bekboy aka Samarcandda uchcrashganimizda o'zining yozmishlarini ko'rsatadi, satrularini o'qib beradi. Satrulari xalqona, o'zida hikmatni mujassam etgan. Miriqib eshitaman. U yer-bu yerini tuzatgandek bo'lamiz. Bekboy akada Xudo



Bekboy QURBONOV,
Samarcand viloyati
Nurobod tumani

O'ZBEKISTONIM

Men seni sevaman, Vatanim,
Tuproqlari oltinga konim.
Fido bo'lsin senga jon-tanim,
Gullarga kon, O'zbekistonim.

Ozod Vatan, obod maskansan,
Har bir qarich tuprog'i zarsan,
Bu olamda o'zing yaktosan,
Jonim fido, O'zbekistonim.

Sen o'zingsan hayotim ko'rki,
Mehnatsevar o'zbeklar yurti,
Vatamparvar millatim mulki,
Jonim fido, O'zbekistonim.

MUABBAT QO'SHIG'I

Olislardan termilib senga,
Yetarmanmi, deya o'yladim.
Ishqim bayon etay deb senga,
Muhabbatning kuyin kuyladim.

Senga bo'lsin shu jonom fido,
Ishq o'tida qilmagin ado,
Qachon sendan kelar, yor, sado,
Muhabbatning kuyin kuyladim.

Endi menga kulib boq o'zing,
Sen ham ishqing oshkora ayla.
Kelib mening yonimda o'zing,
Muhabbatning qo'shig'in kuyla.

Ahd-u vafolardan so'ylaylik,
Kelgin, yorim, birga o'ynaylik.
Bu dunyoniz zavqqa to'ladir,
Chin sevgining kuyin kuylaylik.

bergan iste'dod bor. U yanada sayqallansa, izlanishlar bilan boyitilsa va kitob holiga keltirilsa, xalqimiz uchun yana bir she'riy guldasta taqdim qilingan bo'ladi.

Bekboy aka 1971-yil 16-fevralda Samarcand viloyati Nurobod tumani Tim qishlog'iда tug'ilgan. 1988-yil 56-umumta'lim məktəbinə tamomlagach, o'rta maxsus bilim yurtiga o'qishga kirgan. U o'sha davrlardan buyon ijodkor hofiz sifatida elga xizmat qildi hamda she'rler yozadi. Hayotdagi shiori "Hech qachon berilgan imkoniyatdan foydalananmay qolmaslik".

Bugun sizning hukmingizga Bekboy Qurbonovning bir nechta she'rlerini havola etamiz. Xulosa va hukm sizdan, aziz jurnalxonalar!

Erkinjon Bo'stoniy Andijoni,
shoir va yozuvchi, "Ta'lim fidoyisi",
"O'z kasbining fidoyisi" ko'krak
nishonlari sohibi

DUNYONING ISHLARI

Kimdir yotar soya-salqinda,
Kimdir chopar, bilmam, qayooqqa.
Qarab turib hayron qolasan,
Dunyoning ishlari shunaqa.

Kimdir topar nonin halollab,
Kimdir botar chucher botqoqqa.
Boqib turib hayron qolasan,
Dunyoning ishlari shunaqa.

Kimlargadir havas qilasan,
Kim berilgan ichib aroqqa.
Yurak bo'lgan ulardan nari,
Dunyoning ishlari shunaqa.

Kimdir yashar qo'y-qo'zi boqib,
Kim yuradi nog'ora qoqib.
Kimlardir lol, kimlardir hayron,
Dunyoning ishlari shunaqa.

O'zingga boq, Bekboyjon, mudom,
Kimdir senga qarar qanaqa.
Balki havas, balkim hasaddir,
Dunyo asli o'zi shunaqa.

Tabiatning ne'matin,
Shukur qilib totamiz.
Kuy va qo'shiqlar kuylab,
Yozdan quvnab o'tamiz.

MENI ROSA...

Meni rosa suydirib ketgan,
Suydirib ham kuydirib ketgan,
Jonginamdan to'ydirib ketgan,
Yuragimda bir qiz yashaydi.

Kechalari orom bermagan,
Biror marta holim so'rmagan,
Qo'l uzatsam, qo'lin bermagan,
Yuragimda bir qiz yashaydi.

Tim qoradir qoshlari kamon,
Bir ko'rishim men uchun armon,
Kiprigi yurakka sanchilar hamon,
Yuragimda bir qiz yashaydi.

YURTIMIZGA KELOI YOZ

Yurtimizga kelar bo'ldi,
Tog'dan oshib go'zal yoz.
Yurak shodlikka to'ldi,
Iliq yozni kutib soz.

Dalalarda ish qaynoq,
Pishar qovun-tarvuzlar.
Ko'rib dillar quvonar,
Quvnab tun-u kunduzlar.

Tabiatning ne'matin,
Shukur qilib totamiz.
Kuy va qo'shiqlar kuylab,
Yozdan quvnab o'tamiz.



MUDHISH JINOYAT

Ma'rufjon QO'CHQOROV,
Navoiy viloyati Navbahor tumani

Sherbekni uyidagli "Bek" deb chaqirishardi. Yoshi o'n yettiда edi. Hozirgi kunda u "Voyaga yetmaganlar koloniyasida" o'z qilgan jinoyati uchun jazo muddatini o'tamoqda.

Bundan roppa-rossa bir yil avval u inson bolasi qila olmaydigan vahshiy jinoyatni sodir etgan edi. Ichkilik va qanaqadir narkotik dorilar ta'sirida o'z opasini pichoqlab qo'ygandi. Ha, juda ayanchli va qo'rqinchli holat, aslida. Qanday qilib bir ona qornidan talashib tushgan uka o'z opasini o'ldira oladi. Keling, bu haqida sizga bafurja so'zlab beray.

Sherbek va Lola ota-onasining jondan shirin dilbandlari edi. Oilada e'tibor, albatta, ikkalasiga ham teng taqsimlanardi. Vaqt kelganda Lolaga, vaqt bo'lganda esa Sherbekka e'tibor ko'proq tegardi. Nima bo'ldi-yu uyda voyaga yetgan opasini uzatish mavzusi ochildi. Shundan so'ng ona faqat qiziga e'tiborini ko'proq qarata boshladi. Bu esa o'g'liga yoqmayotgandek tuyulardi. Sherbekda noodatiy qiliqlar, uyg'a spirthi ichimliklar ichib kelish, har-xil narkotik dorilar iste'moli boshlangandi. O'z navbatida bu holat Sherbek uchun odatiy holga aylanib ulgurgandi. Opasini bunday holatlardan xabari bor, bilsa ham otonasiga ukasining bunday ahvolini aytmas, ba'zida uni uyg'a yashirincha ham olib kirardi. O'sha mudhish voqeadan ilgari Bek yana ichib keldi, Lola esa ukasiga tanbeh ovozi bilan gapirdi. Birozdan so'ng esa opa-uka dildan suhbat qura boshladilar. Agar bu suhbat opa-uka uchun oxirgisi bo'lganini bilganlarida, balki uzoqroq suhbat qurishgan bo'larmi-di? Bek uyiga yugurgilab keldi va seyfning kalitini apil-tapil izlay boshladi. Topa olmagach oshxonada o'z yumushini qilayotgan opasining oldiga borib jahl bilan "Kalit qani?" deb o'shqirdi. Kalit oxshona javonida turganini ko'rib, Lola tezda olib cho'ntagiga solib qo'ydi. Buni ukasi ilg'ab qoldi. Sherbek "Yaxshilikcha bu yoqqa ber" deb turib oldi. Lola ham o'z ukasiga bo'sh kelmay "Kalit sen uchun yo'q" dedi. Bekning yuzlari qizarib, peshonasidan qaynoq ter oqa boshladidi, ko'zlar esa allanechuk qonga tashnadek qizara boshlagandi. U yoq-bu yoqqa qaradi va oshxona pichog'iga ko'zi tushdi. Uni tezda qo'liga olib yana "Kalitni ber, yaxshilikcha aytayapman" deb bot-bot tahdid qildi. Lola "Sendan qo'rqiymayan, kalitni esa bermayman. Ota-onamizning pullarini qanaqadir bemaqsad ishlatishtingga yo'l qo'ymayman" deb aytilib ulgurgan edi hamki, kutilmaganda tashlanib qolgan ukasining qo'lidan omon qutula olmadidi. Bek kalitni oldi va hech qanaqa qiyinchiliksiz odam o'ldirib yurganday tezda xonadan o'qdek otilib chiqdi. Bek va niyoyat niyatiga erishgan, unga endi xalaqit bera oladigan hech kim yo'q edi. Bunga esa o'z opasini qurban qilib erishgandi. Qaytib kelgan Bek divanda yotib kuchliroq dori ta'sirida uxbab qoldi. Anchadan keyin yetib kelgan Farhod aka mehmonxonada o'g'lining uxbab yotganini ko'rib indamadi va qizini izlay boshladi. Topa olmagach "Balki o'g'lim bilar" degan xayol bilan mehmonxona divanida yotgan o'g'li tomon ildamladi. Bekni bir-ikki turtgach qimirlamadi. O'ziga tortgan edi, ne ko'z bilan qarasaki, futbolkasida qon izlari bor edi. Xavotir aralash yuziga tarsaki urib uyg'otdi. O'g'li "Bilmayman, ana oshxonaga qarang" deb yuzini burdi, yugurgilab yetib kelgan ota o'z qizining jonsiz tanasini oxshona poyida ko'rib baqirib yig'lab yubordi. Ovozdan qo'rqiib ketgan Bek birdaniga opasiga pichoq urib qo'ygani xayolidan o'tib, shart o'rnidan turdi va nima qilishni o'lay yoshladi. Qo'rqqanidan xayoliga faqat bitta o'y kelardi: "O'z otasini ham narigi dunyoga ravona qilish". "Ha, shunday qilaman" deb pichoqni yana qo'liga olib o'rnidan turgan edi. Farhod aka vajohat bilan yugurib kelib, o'g'liga tarsaki tortib yubordi. Zarba shu qadar kuchlimidi yoki dori ta'siri hali ham tarqamagani uchunmi Sherbek yerga quladi. Apil-tapil tezda qo'lini qayirib bog'lab qo'yan ota endi nima qilishga hayron edi. Birinchi navbatda "Tez tibbiy yordam"ga keyingi galda esa militsiyaga qo'ng'irog qildi. Militsiya va shifokorlar surishtiruv boshladilar. Bu orada esa uyg'a Ra'no opa kelib qoldi va nima bo'lganiga aqli yetmay qo'rquv bilan uyg'a kirib erini izladi. Farhod aka esa boshini quyig'eb olib militsiya xodimiga bir nimalarni aytayotgandi. Dahlizdan esa o'g'lining qo'llariga kishan solingen holda olib chiqishayotgandi. Ra'no opa shok holatida uyidagi odamlar nega tez-tez oshxona tomon borayotganini hali ham bilmas, nega o'g'lini kishan solib olib chiqganlarini bilolmay garangsib turardi. Ona ham beixtiyor hamma oshiqayotgan oshxona tomon yurdi va negadir eshik oldida to'xtab qoldi. Ko'pincha qizi oshxonada bo'lismeni o'ylab qolib, xavotirli nigoh ila mo'raladi. Haqiqatdan ham, qizi oshxonada edi, ammo bu safar uning jonsiz tanasi ustiga oppoq mato yopib qo'yilgandi. Onaizor ho'ngrab yig'lab yubordi. Afsus va nadomatlarga endi ancha kech edi. Uyida to'y bo'lish o'mniga aza ochildi, qizi oppoq kelin ko'ylagini emas, kafanlik kiygan edi...



BIZ O'ZBEKNING JAJJI AVLADI

Biz o'zbekning jajji avlodi,
Orzularimiz osmon qadar.
Ahil-inoq bo'lib barchamiz,
Yurt oldida birdam turamiz.

Biz o'zbekning jajji avlodi,
Yurtboshimning faxri bo'lamiz.
Vatanimizning sha'ni bo'lib,
Yurt oldida birdam turamiz.

Onajon, men sizni yaxshi ko'raman,
Onajon, men yaxshi farzand bo'laman.
Ollohimdan so'rayman sizga uzoq umrlar,
Baxtliman, sog' bo'lib yursangiz agar.

Jajji qo'llimizga qalam tutqazib,
Bizlarni erkalab harft tanitgan.
Onamizday mehr berib bizga,
O'qish va yozishni o'rgatgan,
Ustozlarimiz, sizlarga rahmat!

Dadajonim mehribon inson,
Meni juda yaxshi ko'radilar.
"Ona qizim, erkatoyim" deb
Peshonamdan o'pib qo'yalar.

Maktabimni juda sog'indim,
Ustozimni ko'rgim keladi.
Sinfosh dugonalarim bilan
Maktabimning quchog'ida
Quvlashmachoq o'ynagim keldi.

Dadajonim bu dunyo ichra,
Eng yaxshining yaxshisi mudom.
Samolarga uchgim bag'rida,
Dada, sizni asrasin duom.

Bibixojar SHODIYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti talabasi

SINOV

Robbim farmoni ayni davo bandaga,
Berilgan umr omonat, qarzdir bandaga.
Olloh bergen jonni qo'yib gunoh kundaga,
Mo'minning tavbasi ayni davodir bandaga.

Jondan kechib qo'yma boshni kundaga,
Bu hayot berilgan asli sinov bandaga.
Umringni borin baxsh et tavbaga,
Maqsadni ishlatma makr-u hiylaga.

Dunyoga yaxshilik urug'in sochgin,
Yaxshilarga ergash, yomonlardan qoch.
Yoshing o'tib borsa, oqarganda soch,
Yomonlik bo'lmasin boshingga gultoj.

Yaxshilik qildingmi, o'yladingmi hech?
Yomonlik o'tiniga to'la dunyo – pech.
Yaxshilikdan tolma, yomonlikdan kech,
Oxir demagin-da bo'libdi-da kech.

Tavba qil, birodar, tiriklik chog'ing,
Azobin tortganan keyin jabr-da.
Evoh, bir bor qilayin sajda deya,
Yotibdi nechtasi ko'rgin qabrdha.

Jajji qo'llarga tutqazib qalam,
Ta'lim berdi bizga muallim.
Hayotda ko'p yaxshilik ko'rdim,
Uzolmasman sizdan bu qarzim.
Sizni sevib ardoqlagum,
Har nafasim bo'lguncha ado.
Yakun yasab umrimga,
Soya solgunicha intiho.

Sog'inibman maktab onlarin,
Har lahzasi zavq-u shavq bilan.
Ko'rgim kelar sinfdoshlarim,
Uchrashaylik erta tong ila.

"BARKAMOL AVLAD" BOLALAR MAKtablARI FAOLIYATIDAGI NAVBATDAGI XALQARO G'ALABA



Qirg'iziston Respublikasida Xalqaro sport festivali o'tkazildi.

Festivalda Xorazm viloyati Xonqa tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabining to'garak a'zolari "Shotokan-karate" yo'nalishi bo'yicha ishtirot etib, mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Ular bilan quyida tanishing:

Parizoda Xajiyeva – 10-11 yosh 35 kg;
Sardor Narimonov 14-15 yosh 52 kg.

G'oliblikni qo'lga kiritgan to'garak a'zolalarimizni erishgan yutug'i va xalqaro musobaqalarda Vatanimiz sharafini yuksak pog'onaga olib chiqqani munosabati bilan muborakbod etamiz!

Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi Axborot xizmati

